



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil 3-son

VOLUME 3 / ISSUE 3 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.3.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

TAHRIR HAY'ATI:

B. XODJAYEV

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, dotsent – bosh muharrir

I. ERGASHEV

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

N. RAMAZONOV

TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent – mas'ul muharrir

JOAN BLUM

Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori

MARCIN MICHAŁ WISZOWATY

Polshaning Gdansk universiteti professori

A. HOSHIMXONOV

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

M. AXMEDSHAYEVA

TDYU Davlat va huquq nazariyasi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

X. XAYITOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

I. TO'RABOYEV

TDYU Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

S. XOLBOYEV

O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi kafedra mudiri, y.f.n., dotsent

N. RAXMONKULOVA

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

Z. ESANOVA

TDYU Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

J. NE'MATOV

TDYU Konstitutsiyaviy huquq kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

M. KURBANOV

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasida dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

R. KUCHKAROV

TDYU Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yurisprudensiya” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

“Юриспруденция” правовой научно-практический журнал

“Jurisprudence” legal scientific-practical journal

“Yurisprudensiya” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN: 2181-1938

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

**5 TOSHQULOV JO'RABOY O'RINBOYEVICH
MUHAMMADJONOV JASURBEK
JAHONGIR O'G'LI**

Qadimgi sharqda inson va fuqarolarning
tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini
ta'minlashning huquqiy asoslari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA
HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

20 XODJAYEV BAXSHILLO KAMOLOVICH

O'zbekistonda sud pretsedenti: huquqiy
aniqlik va *stare decisis* doktrinas

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.
KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-
IJROIYA HUQUQI.

**26 HAYDAROV SHUHRATJON
DJUMAYEVICH**

Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada
bajarmaslik jinoyati tushunchasi va uning o'ziga
xos belgilari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

**39 ATANIYAZOV JASURBEK
KURBANBAYEVICH**

Ish yuritishni rad etish yoki tugatishda
shaxsning vafot etganligi asosi: muammo va
yechimlar

**48 DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI
FANINING DARG‘ASI YOXUD
YURIDIK FANLAR DOKTORI,
PROFESSOR ZAYNIDDIN
MUXITDINOVICH ISLOMOV XOTIRASINI
YOD ETIB...**

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.3./WJSY1193>
UDC: 342.41(045)(575.1)

QADIMGI SHARQDA INSON VA FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Toshqulov Jo'raboy O'rinboyevich,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Davlat va huquq ilmiy tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0002-4492-4665
e-mail: joraboy89@gmail.com

Muhammadjonov Jasurbek Jahongir o'g'li,

Davlat va huquq ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0003-2303-588X
e-mail: interlwayerjr@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Qadimgi Sharqda inson va fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini ta'minlashning huquqiy kafolatlari, uni amalga oshirish uchun belgilangan tartib-qoidalar va ushbu huquqni ta'minlashning huquqiy normalari yoritilishi, insonlarning mulk huquqini ta'minlashning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Sharq xalqlarining tarixiy-huquqiy yodgorliklari bo'lmish "Hammurapi qonunlari", zardushtiylikning "Avesto" kitobi hamda hind xalqi merosi hisoblangan "Manu qonunlari"da ushbu huquq ta'minlanishining kafolatlari yoritilgan. Maqolaning asosiy e'tiborga molik jihati shundan iboratki, Qadimgi Sharqda inson va fuqarolarning mulk huquqi ta'minlanishi, muhofaza qilinishi bilan bog'liq qoidalar o'rganib chiqilgan. Insonlarning mulk huquqi buzilgan taqdirda, belgilanadigan jazo choralari va boshqa chora-tadbirlarning tartibi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqining tarixiy-g'oyaviy jihatdan shakllanishi, tarixiy-huquqiy hujjatlarda undan alohida norma sifatida foydalanish, tadbirkorlikning qadimda mavjud bo'lgan asosiy turlari to'g'risidagi ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilingan. Inson va fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqi ta'minlanishining jamiyat farovonligi va iqtisodiy hayotiga ijobiy ta'siri masalalari o'rganilgan. Ushbu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishlari haqida takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Qadimgi Sharq, inson, fuqarolarning tadbirkorlik huquqi, tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqi, mulk huquqi, "Avesto", "Hammurapi qonunlari", "Manu qonunlari", tadbirkorlikning turlari, tadbirkorlikning huquqiy asoslari.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВА ЛЮДЕЙ И ГРАЖДАН НА ЗАНЯТИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВОМ НА ДРЕВНЕМ ВОСТОКЕ

Ташкулов Джурабой Уринбоевич,

доктор юридических наук, профессор, заведующий отделом
Института государства и права Академии наук Республики Узбекистан

Мухаммаджонов Жасурбек Жахонгир угли,

базовый докторант Института государства и права
Академии наук Республики Узбекистан

Аннотация. В статье анализируются правовые гарантии обеспечения права людей и граждан на занятие предпринимательской деятельностью на Древнем Востоке, установленный порядок его осуществления и уточнение правовых норм обеспечения этого права, правовые основы обеспечения права собственности. Гарантии обеспечения этого права освещены в «Законах Хаммурапи», книге зороастризма «Авеста», являющихся историко-правовыми памятниками народов Востока, «Законах Ману», считающихся наследием индийского народа. Главным примечательным аспектом статьи является то, что на Древнем Востоке изучались нормы, связанные с обеспечением и защитой имущественных прав людей и граждан. Приведена подробная информация о порядке применения наказаний и иных мер в случае нарушения имущественных прав граждан. Сравнительно проанализировано историко-мировоззренческое становление права на занятие предпринимательской деятельностью, его выражение в виде отдельной нормы в историко-правовых документах, сведения об основных видах предпринимательства, существовавших в древности. Исследованы вопросы положительного влияния обеспечения права людей и граждан на занятие предпринимательской деятельностью на благосостояние и экономическую жизнь общества. Представлены предложения об основных направлениях научно-исследовательских работ, которые будут проводиться в этой области.

Ключевые слова: Древний Восток, человек, право граждан на предпринимательство, право заниматься предпринимательством, право собственности, «Авеста», «Законы Хаммурапи», «Законы Ману», виды предпринимательства, правовые основы предпринимательства.

LEGAL FOUNDATIONS OF ENSURING THE RIGHT OF PEOPLE AND CITIZENS TO ENGAGE IN ENTREPRENEURSHIP IN THE ANCIENT EAST

Tashkulov Jurabay Urinbaevich

Institute of State and Law of the Academy of Sciences of
the Republic of Uzbekistan
Head of Department, Doctor of Science, Professor

Mukhammadjonov Jasurbek Jakhongir ugli

Institute of State and Law PhD student

Abstract. The article analyzes the legal guarantees of ensuring the right of people and citizens to engage in entrepreneurship in the Ancient East, the procedures established for its implementation, and the clarification of the legal norms of ensuring this right and the legal basis of ensuring the property rights of people. The guarantees of ensuring this right are highlighted in the "The Code of Hammurabi", which is the historical and legal monument of the Eastern peoples; the "Avesta" book of Zoroastrianism; and the "The Law Code of Manu", which is considered the heritage of the Indian people. The main noteworthy aspect of the article is that in the Ancient East, the rules related to the provision and protection of property rights of people and citizens have been studied. Detailed information is provided on the order of punishments and other measures in cases of violations of property rights. The historical-theoretical formation of the right to engage in entrepreneurial activity, its expression as a separate norm in historical-legal documents, and information on the main types of entrepreneurship that existed in ancient times were comparatively analyzed. The issue of the positive impact of ensuring the right of people and citizens to engage in entrepreneurship on the welfare and economic life of society has been studied. Proposals about the main directions of scientific research work to be carried out in this area have been presented.

Key words: The Ancient East, human, citizens' right to entrepreneurship, the right to engage in entrepreneurship, property rights, "Avesta", "The Code of Hammurabi", "The Law Code of Manu", types of entrepreneurship, legal foundations of entrepreneurship.

Kirish

Fuqarolarning iqtisodiy tashabbuslari, shaxsiy intilishlari va yaratuvchanligi, moddiy imkoniyatlarni yaxshilashga urinishi ularning ijtimoiy munosabatlar tizimida tadbirkorlik va savdo-sotiq faoliyati bilan shug'ullanishi natijasida namoyon bo'ladigan alohida xususiyat hisoblanadi. Shaxs o'zining mulkiy huquqlaridan foydalanish asnosida mulkdan unumli foydalanish va uni tasarruf etish imkoniyatlarini kengaytirishga urinishi tabiiy holdir. Bugungi kunda yurtimizda iqtisodiy sohada olib borilayotgan islohotlar samarasi o'laroq, sohada yuzaga kelgan muammolarga qonuniy yechimlar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, qonunosti va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Oxirgi besh yillikda O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik bilan bog'liq sohalarida huquqiy jihatdan tartibga solinishi kerak bo'lgan ko'plab munosabatlar paydo bo'ldi yoki davr ehtiyoji tufayli qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar shunday munosabatlarni yuzaga keltirdi. Jumladan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishning yangicha kategoriyalari va tartibga solish obyektlarining harakat jarayoni huquqiy munosabatlariga kirishuvchi tomonlarga nisbatan imtiyoz beruvchi va majburiyat yuklovchi yoki chegarlovchi normalarni qabul qilish orqali tizimlashtirildi. Eskirgan normativ-huquqiy hujjatlarga zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi yoxud ular yangi tahrirda qabul qilindi.

Material va metodlar

Tadqiqotda inson va fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqining tarixiy jihatdan rivojlanishini o'rganishda Qadimgi Sharq tarixiy manbalari hamda huquqshunos olimlarning nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda tarixiylik, qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, umumlashtirish kabi metodlar qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari

Umuman olganda, fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini

amalga oshirishi bilan bog'liq mulkiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga Sharq, shu jumladan, Markaziy Osiyoda qadimdan alohida e'tibor berilgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, qadimdan tadbirkorlikning dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, po'stindo'zlik, kulolchilik, zargarlik, terichilik, to'quvchilik, do'ppido'zlik, to'qimachilik, gilamchilik, etikdo'zlik, mahsichilik, pichoqchilik, duradgorlik, quruvchilik, shishasozlik, xattotlik, attorlik, baqqollik, novvoylik, oshpazlik kabi turlari keng tarqalgan.

Sivilizatsiya o'chog'i hisoblangan Qadimgi Sharqda o'z davrida har tomonlama gullab yashnagan tarixiy davlatlarning boshqaruvchilari, hokimiyat vakillari yoki diniy yetakchilari tomonidan ishlab chiqilgan va o'sha davlat fuqarolari tomonidan so'zsiz amal qilingan mukammal qonunlar majmui mavjud bo'lgan. Insonlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini tartibga solishning ilk huquqiy ildizlari aynan Qadimgi Sharq xalqlaridan meros qolgan tarixiy hujjatlarda o'z aksini topgan.

Jumladan, Qadimgi Bobil podsholigida qabul qilingan miloddan avvalgi XVIII asrga taalluqli "Hammurapi qonunlari", miloddan avvalgi 1-ming yillikka tegishli zardushtilikning muqaddas kitobi "Avesto", qadimgi hind yodgorligi bo'lgan miloddan avvalgi II-I asrlarga oid "Manu qonunlari" shular jumlasidandir.

"Hammurapi qonunlari" Bobil podshosi bo'lgan Hammurapi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, jami 282 ta moddadan iborat. Qonunlarda o'sha davr hayotining deyarli barcha sohalariga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normalar o'z aksini topgan. Unda insonning mulk huquqi, meros qoldirish va olish, oila qurish huquqi bilan bog'liq munosabatlar, ekin ekish, dehqonchilik, harbiy xizmat, savdo-sotiq kabilar bilan shug'ullanish huquqi, tijorat bitimlari tuzish huquqi, o'z hayoti, sog'ligi, erkinligi va mulkini turli tajovuzlardan muhofaza qilish huquqi va boshqalar qamrab olingan.

Hammurapi kodeksi, shuningdek, Bobil jamiyatidagi barcha tabaqalar, jumladan, ayollar, bevalar, yetimlar, kambag'allar va hatto qullar uchun ma'lum himoyalarni ta'minlaydi.

Qonunlarda barcha shaxslarning qonunga bo'ysunishi talabi inson huquqlarini ta'minlash masalasini asosiy o'ringa ko'tardi, ya'ni burch va huquqlar o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ochib berdi. Har kimning boshqalar oldida ma'lum burchlari bor edi. Ular bajarilmagan taqdirda, boshqalar ularni talab qilishga haqli edi [1].

Bobilda iqtisodiy faoliyat shaxsiy mulkchilik va mulk huquqini aniqlik bilan belgilash hamda himoya qilish orqali rag'batlantirilgan. Qonunlardagi normalar iqtisodiy manfaatlar ustunligini yaqqol ko'rish imkonini beradi. Iqtisodiy jihatdan zaif odamlarning qashshoqlashishi, tushkunlikka tushishi, mehnati unumdorligining pasayishi sababli qo'zg'olon ko'tarish xavfi doimo mavjud bo'lgan. Hammurapi kodeksi kambag'al va baxtsizlarni himoya qilish uchun mo'ljallangan bir nechta qoidalar bilan bu xavfdan himoya qilgan. Ijtimoiy nazorat nuqtayi nazaridan adolat bu – shaxsni o'z maqomiga moslashtirish va uni ijtimoiy vazifalariga jalb qilishning psixologik vositasidir. "Hammurapi qonunlari" xalqning barqarorligiga putur yetkazmasdan yoki ishlab chiqarish quvvatini kamaytirmasdan boylik orttirishni rag'batlantiradigan adolatga intilgan [2].

Qonun fuqarolik, jinoiy va tijorat masalalariga bag'ishlangan. Fuqarolik qonunlari shaxsiy huquqlar, mulk, shartnomalar, ko'chmas mulk, savdo, tovarlar narxi, oila, ishchilarning ish haqi va boshqalar bilan bog'liq. Qonun mulkni sotish, ijaraga berish, ayirboshlash, sovg'a, depozit, qarz berishning ko'plab usullarini tan oldi. Qonunlarda qurilish, qayiq ijarasi va ekipaj narxleri ham alohida norma sifatida belgilangan [3].

Qonunlarda fuqarolarning mulkiy munosabatlari hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi bilan bog'liq munosa-

batlarni tartibga soluvchi ko'plab normalar mavjud. Jumladan, qonunda harbiy xizmatchiga yer-mulk, dala yoki bog'ning xususiy mulk qilib berilishi nazarda tutiladi. Belgilashicha, agar redu yoki bairu (harbiy xizmatchi) qirolik mag'lubiyati tufayli asir olinsa va undan keyin uning dalasi va bog'i harbiy xizmatini bajaradigan boshqa shaxsga berilsa, keyinchalik u (harbiy asir) qaytib kelib, o'z uyiga yetib borsa, o'z dalasi va bog'ini qaytarib olishga haqli va o'zining fidokorona xizmatini bajarishda davom etadi [4].

Bu normadan ma'lum bo'ladiki, agar shaxs harbiy xizmatchi sifatida davlatga xizmat qilsa, unga buning evaziga yer-mulk beriladi va u bu yer-mulkni o'zi xohlaganiday tasarruf qilish huquqiga ega.

Qonunlarda yer va tovar shaklidagi xususiy mulkning daxlsizligi so'zsiz tan olingan. Hujjatdan ma'lum bo'lishicha, Bobil davlatida iqtisodiy hayotning faol ishtirokchilari va ta'minotchilari savdogarlar va yer egalari – dehqonlar tovar ishlab chiqaruvchi yoki mahsulot sotuvchisi sifatida faoliyat yuritganlar. Jumladan, dehqonlar tomonidan dala-ga ishlov berib, undan hosil olish bilan bog'liq tartib-qoidalar belgilab berilgan. Bu borada qonunda agar biror kishi dalani ishlov berish uchun olsa-yu, undan hosil ololmasa, u dalada hech qanday ish qilmagani isbotlanishi kerak va u xuddi qo'shnisi ko'targandek, dala egasiga don yetkazib berishi kerak ekanligi belgilangan [4].

Qonunda xususiy mulk daxlsizligi va ushbu daxlsizlikni buzganlarga o'lim jazosigacha qo'llanishi o'rnatilgan. Shuningdek, bunday jinoyatlarga nisbatan ko'riladigan jazo choralarini sifatida, agar birovning uyida yong'in chiqsa, (va) boshqa birov uni o'chirishga kelib, uy egasining mulkidan biror narsaga nigohini qaratib, uy egasining mol-mulkidan biror narsani o'zlashtirsa (o'g'irlasa), bu odam shu yerning o'zida olovga tashlanishi belgilangan [5].

Xususiy mulk bilan bog'liq munosabatlarda qonunlarda ko'plab iqtisodiy subyektlar

tan olinadi. Hammurapi saltanatida ishlab chiqarishning asosiy sohasi qishloq xo'jaligi edi. Qonunlarda xususiy mulkchilikka ishora qilinadi. Mulkchilik, asosan, ma'badga biriktirilgan ruhoniylar, zodagonlar, harbiy va byurokratik amaldorlar qo'lida bo'lgan. Qonunlarda savdogarlar tadbirkorlikning muhim subyektlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Savdogar shaxsini to'laqonli tasvirlash uchun yetarli ma'lumot olish qiyin bo'lsa-da, u xalqaro savdo bilan shug'ullangani va hatto chet elda diplomat sifatida faoliyat yuritganligini ham taxmin qilish mumkin.

Ko'pincha savdogarlar Bobil iqtisodiyotida bank xodimining ayrim vazifalarini ham bajarganlar. Bank faoliyatining bir tomoni depozitlarni qabul qilish va bu omonatlarning ishonchli boshqaruvchisi sifatida harakat qilish bo'lsa, qonunlarda donni saqlash uchun boshqa bironing uyida saqlash amaliyotiga ishora qilinadi hamda shartnoma shartlarini qat'iy qilib belgilaydi. Ishbilarmonlikning bunday turi zamonaviy bankirlar tomonidan taqdim etilgan seyf qutisiga o'xshaydi.

Bevosita tadbirkorlik turlari hisoblangan tabiblik, hunarmandchilik, dehqonchilik, bog'dorchilik hamda bu mulklardan yetishtiriladigan tovar va hosillarning taqsimlanishi yuzasidan qonunlarda aniq ko'rsatmalar belgilab berilgan.

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, tadbirkorlikning kelib chiqishi va rivojlanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Hammurapi qonunlarida insonlarning ushbu faoliyatga bo'lgan huquqi o'z davrida Bobil iqtisodiyotining rivojlanishi va jamiyatda farovonlikni ta'minlashga xizmat qilgan [6].

Qonunlarga binoan, kimdir boshqa bir kishini bog' yetishtirish uchun dala bilan ta'minlasa, (va) u bog' yetishtirib, uni to'rt yil parvarishlasa, beshinchi yili bog'bon va yer egasi hosilni o'zaro teng taqsimlab olishlari kerakligi ta'kidlanadi.

Biroq agar biror kishi dalani o'zlashtirish uchun egallab, uch yil davomida yerni haydab o'zlashtirmasa va dalaga ekin ekmasa, to'rtin-

chi yili u dalani ketmon (va) tirma bilan haydab, uni qayta tiklaydi. (U) dala egasiga har bir bur (yer o'lchovi) (yer) uchun 10 gur (og'irlik o'lchovi) makkajo'xori to'lashi lozimligi belgilangan [4].

Yer egasi asosan davlat xizmatchilari bo'lganiga ahamiyat bersak, oddiy aholi yerlarini, dala va bog'larni ko'pincha ijaraga olib mehnat qilishgan. Yer egasi va ijarachi o'rtasida ijara shartnomasi tuzilgan va unda ikki subyekt o'rtasidagi munosabatlarning tartibi belgilab berilgan. Qonunlar yer egalari kapitalni o'tkazishda savdogarlarning roliga asosiy urg'u beradi. Bundan tashqari, yer egalari hosilni bo'lishish uchun shartnoma asosida dehqonlarga yer, urug'lik, ishchi kuchi va asbob-uskunalar taklif qilganligi ham diqqatga sazovor. Shu orqali dehqonchilik qilmoqchi bo'lgan shaxslar ushbu faoliyat bilan shug'ullanishga rag'batlantirilgan.

Qonunlar samarasizlikning har qanday ko'rinishiga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishni umumiy qoida sifatida belgilagan. Qonunlar shartnoma shartlarini bajarmaslikka salbiy qaragan va shu bilan faoliyat turidan qat'i nazar, tadbirkorlarni samaradorlikni oshirishga undagan.

Shuningdek, agar dehqonchilik qilish uchun foydalanilmayotgan dalaga bo'ron yoki shunga o'xshash tabiiy ofat xavf solsa yoki suv yetishmasligi oqibatida ekin o'sishdan to'xtasa yoxud nobud bo'lsa, dehqon birinchi yil uchun yer egasiga ijara haqi ham to'lamaydi va hosildan ham hech qanday hissa bermaydi [4]. Yuqoridagi kabi istisno va rag'batlantiruvchi holatlar, albatta, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchilarning muntazam bu ishga bo'lgan moyilligini oshirgan.

Qonunlarda dehqonchilik bilan shug'ullanuvchilarni ogohlik va shu o'rinda mas'uliyatli bo'lishga qat'iy chaqiriqlar belgilangan. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi shaxs o'z yeriga ishlov berish jarayonida ekinning xavfsizligi, uni yetishtirish bilan bog'liq jarayonlarda hushyor bo'lish kerakligiga urg'u berilgan. Chunki aksariyat hollarda ekinni

nobud qilishi mumkin bo'lgan favqulodda xavf-xatarlarning ham salbiy oqibat natijasi yerga ishlov berayotgan shaxs zimmasida qoladi. Jumladan, qonunlarning 55-moddasiga ko'ra, kim o'z ekinini sug'orish uchun ariqlarini ochsa-yu, lekin beparvoligi tufayli qo'shnisining dalasini suv bosib ketsa, u qo'shnisiga yo'qotgan makkajo'xori uchun pul yoki natura to'laydi [4]. Shunga qaramasdan, dehqonning huquqlari ham u amalga oshirgan mehnatning samaradorligiga qarab adolatli tarzda belgilangan.

Chorvachilik bilan shug'ullanish va chorva mollariga egalik qilish aksar holatlarda qonunlar bo'yicha fuqarolarga tegishli bo'lgan mulk va faoliyat shakli sifatida qayd etilgan. Bundan tashqari, shoh tomonidan alohida xizmatlari uchun davlat xizmatchilariga ham chorva mollari in'om etilgan. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi shaxsga o'zganing chorvasini boqib bergani uchun haq to'lanishi nazarda tutilgan. 261-moddada belgilanishicha: "Kim qoramol yoki qo'y uchun podachi yoki cho'pon yollasa, unga yiliga sakkiz gur (o'lchov birligi) don to'lab tursin". Shuningdek, qonunlar dehqonchilikka qo'yilgan talablar singari chorvachilik bilan shug'ullanayotgan shaxslarga ham chorvaning xavfsizligi ta'minlanishi va foydali bo'lishini nazorat qilishni talab qiladi. 263-moddada qayd etilishicha: "Agar (kim-da kim) o'ziga berilgan qoramol yoki qo'yni so'ysa, egasiga qoramol uchun qoramol, qo'y uchun qo'y to'laydi" [4]. Shuningdek, chorvaning kamayib ketmasligi uchun chorvador javobgar bo'lishi belgilangan. Jumladan, bu haqda 264-moddada shunday deyiladi: "Agar (kimgadir) qoramol yoki qo'y boqish ishonib topshirilgan va (u) o'z maoshini kelishilgan holda olsa va qanoatlansa, (shundan keyin) qoramol yoki qo'yning sonini kamaytirsayoki tug'ilish bo'yicha ko'paytirishni kamaytirsay, hisob-kitob shartlarida yo'qotilgan o'sish yoki foydani qoplashi shart" [4].

"Hammurapi qonunlari"da savdogar tadbirkorlik qilishda hal qiluvchi ahamiyatga

ega subyekt sifatida belgilangan. Savdogarning boshqalarga qarz berish orqali kreditga muhtojlarning faoliyatiga sarmoya kiritishi o'rnatilgan. Dehqonchilik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan shaxsning savdogardan qarz olishi mumkinligi va bu qarzni qaytarish vaqti kelganda, uni savdogarga pul yoki natura ko'rinishida to'lashi mumkinligi ko'rsatilgan. Tadqiqotchi N.Ahmedovning qayd etishicha, Bobilda muhim savdo markazlarida savdo-sotiq ishlari "tamkar" nomini olgan ayrim tadbirkor boylar qo'lida jamlangan. Tamkarlarning qo'lida shamallumlar (kichik savdogar yoki savdo agenti) ish yuritgan. E'tiborlisi, ushbu ishbilarmonlik faoliyatini tartibga solib turish maqsadida podsho saroyida bosh mahkama ham tashkil etilgan [7].

Shuningdek, qonunlarda savdogarlik bilan shug'ullanish va bu faoliyat davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli muammolarning yechimlari, sud tomonidan ko'riladigan ishlarda sudya chiqaradigan qarorlar to'g'risidagi qoidalar ham o'z aksini topgan.

Qonunlarda agar kimdir savdogardan qarz olsa va qarz beruvchi undan (qarzni) to'lashni talab qilsa, qarzdorning to'lashga hech narsasi bo'lmasa, savdogarga o'zining ekilgan bog'ini taklif qiladi va shunday deydi: "Bog'da o'sgan barcha xurmolarini pulingiz uchun oling!" Agar savdogar bunga rozi bo'lmasa, bog'da yetishtirilgan xurmolarini bog'bon olib, hujjat bo'yicha foizlari bilan savdogarga to'lashi, bog'da yetishtirilgan xurmoning qolgan qismini esa bog'bon olishi shartligi belgilangan [4].

Qonunlarda ayrim shaxslarning tabiblik bilan shug'ullanishi mumkinligi, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchining mas'uliyati va uning o'z mehnati uchun haq olishga haqli ekanligi haqidagi qoidalar o'z aksini topgan.

Tabiblik faoliyati bilan shug'ullanishda shifokorning bemorni qay darajada davolashi yoki davolay olmasligiga qarab unga haq to'langan. Qonunlarda agar tabib bronza pichoq bilan bemorning tanasida og'ir kesma qilib, (bu) kishiga shifo bersa yoki bron-

za pichoq bilan birovning ko'zidagi tikanni olib tashlasa, (buning) ko'zini davolasa, keyin u o'n miskel kumush olishi va aksincha, shifokor bronza pichoq bilan birovni tanasini og'ir kesib, (bu) odamning o'limiga sabab bo'lsa yoki bronza pichoq bilan birovning ko'zidan tikan olib tashlab, (bu)ning ko'ziga shikast yetkazsa, uning (tabibning) qo'llari kesilishi belgilangan [4].

Bundan tashqari, "Hammurapi qonunlari"-da quyidagi tadbirkorlik turlari bilan shug'ullanishning ham tartib-qoidalar va ularga to'lanadigan haq miqdorlari belgilab berilgan. Bular jumlasiga veterinarlik, sartaroshlik, quruvchilik, kemachilik kabi faoliyat turlari bilan bog'liq bo'lgan tartib-qoidalar kiradi.

Jumladan, veterinarlik (hayvonlar shifokori) bilan shug'ullanish bo'yicha 224-moddada shunday deyilgan:

"Agar veterinariya shifokori eshak yoki ho'kizni og'ir operatsiya qilib, uni davolasa, egasi jarrohga oltidan bir misqol haq to'laydi".

Sartaroshlik bilan shug'ullanish bo'yicha 226-moddada shunday deyilgan:

"Agar sartarosh o'z xo'jayinini bilmagan holda, qulning sotilmasligi uchun qulning boshqaga sotilmasligi haqida qo'yilgan maxsus belgisini kessa, bu sartaroshning qo'llari kesiladi".

Quruvchilik bilan shug'ullanish bilan bog'liq qoidalar 228-229-moddalarda qayd etilgan:

"Agar quruvchi kimgadir uy qurib, uni tamomlasa, (uy egasi) har bir yer yuzi uchun unga ikki misqoldan haq beradi. Agar quruvchi kimgadir uy qursa-yu, o'zi qurgan uy qulab, (uy) egasini o'ldirsa, o'sha quruvchi o'limga hukm qilinadi".

Kemachilik bilan shug'ullanish haqidagi 234-moddaga ko'ra:

"Agar kema quruvchi bir kishi uchun oltimish gur qayiq qursa, unga ikki misqol pul to'laydi" [4].

Yuqorida keltirilgan normalardan tashqari, "Hammurapi qonunlari"-da fuqarolar o'rtasida mulk oldi-berdi munosabatlari, savdosotiq munosabatlari, mulkni ijaraga berish,

undan ko'rilgan foydani shartnoma ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash, yer oldi-sotdisi, yerni ijaraga berish tartib-qoidalar alohida moddalarda belgilab berilgan. Qonunlarning fuqarolarning mulkka bo'lgan huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normalarida ularning iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlash, hayotini yanada yaxshilash, ularning mehnati evaziga adolatli haq olishlari, mamlakatda barqaror savdo-tijorat va tadbirkorlik muhitini yaratish va bu orqali mamlakat fuqarolari uchun farovon hayotni ta'minlashga qaratilgan muhim qoidalar belgilab berilgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining ilk huquqiy manbalaridan biri bo'lgan "Avesto"-da mulkiy munosabatlarni tartibga solishda ahdga vafo qilish, shartnoma shartlariga og'ishmay amal qilish, o'zgalarga yetkazilgan mulkiy zararni qoplash, halol mehnat qilish, tabiiy zaxiralardan unumli foydalanish, o'zi va jamiyatga foyda keltiruvchi faoliyat bilan shug'ullanishga qaratilgan asosiy va tayanch qoidalar haqida g'oyalar ilgari surilgan.

"Avesto"-ning 21-kitobi (ayrim ma'lumotlarga ko'ra 30-kitob) 348 bobga bo'lingan bo'lib, ularda jami 345700 ta so'z ishlatilgan. Qadimgi yunon tarixchisi Pliniyning yozishi-cha, "Avesto" ikki million she'riy misradan iborat bo'lgan.

O'tmishda "Avesto"-ni yaxlit to'plam holatiga keltirishga bir necha marta harakat qilingan. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, Arshakiy Vologes hukmdorligi davrida miloddan avvalgi I asrda "Avesto" ilk bor to'plam holatiga keltirilgan. Milodning III asrida Sosoniylar davrida, IV asrida Shapur II davrida, VI asrida Xusrav I davrida "Avesto" qayta to'plam holatiga keltirilgan. "Avesto"-ning 1/4 qismining (83000 so'zdan iborat) alohida-alohida bob va parchalari saqlanib qolgan. Bizgacha yetib kelgan eng qadimgi nusxasi (1324-yili ko'chirilgan) Kopengagen shahrida saqlanmoqda. "Avesto" ingliz, nemis, fransuz, fors, rus, o'zbek tillariga tarjima qilinib, nashr etilgan [8].

Ko'p qismlari yo'qolib ketganiga qaramay, saqlangan qismlarining o'ziyoq "Avesto"ning ensiklopedik ulug'vorligi, tarixiy manba sifatida yuksak qimmat va ma'naviy umum-bashariy xususiyatlarini to'la namoyish eta oladi [9].

"Avesto"da insonning tadbirkorlik bilan shug'ullanishiga jamiyat va davlat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi. "Avesto"ga ko'ra, o'z hayoti davomida go'zallik va yaxshilik, nur va quvonch yo'lida xizmat qilgan odam porso va haqgo'y, pok va adolatli bo'lib, mehmonlarni beg'araz kutgan, yer va mollarni parvarish qilgan, odamlarning mol-u mulkiga ko'z olaytirmagan, tabiatni asrab-avaylab, undan zavq olgani uchun uning joni ham bitmas-tuganmas rohat va farog'atga burkanadi. Asarda alohida qayd etilishicha, boshqalarga ilk hunar o'rgatgan zot – Oliy Xudo Ahuramazda Hum (ilohning nomi)ga hunar o'rgatgan. Buni quyidagi parchadan ham bilib olish mumkin: "Senga, ey jasorat sohibi, yaratguvchi Mazdaning o'zi hunar o'rgatdi. Senga, ey mardlik sohibi, yaratguvchi Mazdaning o'zi Alburz tog'ida hunar o'rgatdi" [10].

Azaldan ma'lumki, har bir insonning moddiy boylik orttirishi va uni ko'paytirishi uning mulkiy huquqlari mustahkamlanganligi va muhofaza qilinishiga bog'liq. "Avesto"da insonning mulkdor bo'lish huquqi va bu huquqlarning ifodalanishi haqida yuridik fanlar doktori M. Turgunov shunday yozadi: "Hotlar" "Avesto"ning eng qadimiy qismi bo'lib, taxminan eramizdan avvalgi 1500-800-yillarda yaratilgan. Bu davrda, fikrimizcha, uy hayvonlari, ya'ni qo'y va sigirlar mulk obyekti hisoblangan. Hotlardan ma'lum bo'ladiki, "Avesto" yaratilgan davrga kelib, Markaziy Osiyo aholisi allaqachon chorvachilik va dehqonchilikni o'zlashtirgan.

Xususan, "Avesto"ning "Yasna" qismi 62-hot 10-bandida quyidagi qaydlar keltirilgan: "Shoyadki, senga chorvalar suruvi va mardlar guruhi nasib etsa!" Yuqorida keltirilgan

satlardan ko'rinib turibdiki, bu yerda chorvaga bo'lgan mulk huquqi haqida gap ketmoqda. Bu o'sha davrda chorvachilikning yetarli darajada rivojlanganligidan dalolat beradi" [11].

Zardushtiylar, haqiqatan ham, chorvachilikka alohida e'tibor berishgan: cho'poncho'liq tayyorlashga jiddiy qaratilgan, cho'pon tayog'ini oladigan vorislar "lagomzadon", "zin zadan" imtihonlaridan o'tishgan. Turonzaminda chorvachilikni yanada rivojlantirish maqsadida tabiiy yaylovlardan tashqari Amudaryo sohillarida sun'iy yaylovlar bunyod etilgan. "Avesto"da qayd etilishicha, uzoq yaylovlardagi cho'ponlarga g'amxo'rlik qilib, ular uchun uy-joylar, mollar uchun yuzlab ulkan saroy-qo'ralar qurilgan. Unda hayvonlar zoti tozaligini saqlash, ularni urchitish, sog'lig'ini asrash bo'yicha qiziqarli va ibratli ma'lumotlar, tadbirlar haqida mulohazalar mavjud [12].

"Avesto"da yoshlarga kundalik hayot uchun zarur bo'lgan barcha bilimlar, shu jumladan, diniy va tabiiy bilimlar, turli kasb-hunarlar o'rgatish, ma'naviy-axloqiy va mehnat tarbiyasini berish, harbiy san'at sir-lari, yoshlar ongiga vatanparvarlik g'oyalari-ni singdirish, o'z kasbining yetuk ustasi etib tarbiyalash, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishga o'rgatishga alohida e'tibor qaratilgan. Manbada faqat barcha bilimlar-ni egallagan ishbilarmon, tadbirkor o'z kasbining ustasi bo'lganlar vatan taraqqiyotini ta'minlash, uning shuhratini butun dunyoga tarqatishga qodir, degan g'oya ilgari suriladi. Xususan, "Avesto"da ota-ona nomidan aytilgan quyidagi so'zlarni o'qiymiz: "Menga xonadonim, qishlog'im, shahr-u mamlakatim shuhratini dunyoga ko'z-ko'z qiladigan o'qimishli o'g'lon ber".

Zardusht ta'limoti bo'yicha "Tarbiya hayotning eng muhim tayanchi hisoblanishi lozim. Har bir yoshni tarbiyalash zarurki, u, avvalo, yaxshi xulq-odobli bo'lsin, yaxshi o'qish, so'ngra yozishni bilishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin" [13].

“Avesto”da o‘z o‘quvchilari va shogirdlari- ga chuqur bilim beradigan, ularni o‘z kasbi- ning ustasi sifatida tayyorlayotgan vatanpar- var, donishmand, bilimdon ustozlar olqish- lanadi, ularga tahsinlar aytiladi: “Shahar-u qishloqlarda, butun mamlakatda ma’navi- yatdan ta’lim beradigan, osha yo’lini tutgan- lari tufayli xonadonlarga yangi ahkomlarni olib kiradigan xalq ardog‘iga sohib bo‘lgan toifalar sifatida olqishlaymiz”. Tangri po- kandesh g‘aflatidan yiroq, uyquni o‘ziga “ha- rom” biladigan zardo’sht dinini o‘ziga sing- dirgan ustozlarni yoqtiradi, “chunki ular o‘z donoligi hirotmandligi bilan yazdonga yaqin kishilar hisoblanadilar, uning qalbini haqiqat nuri bilan yoritadi. Har bir mazdaparast us- toz kishilarni to‘g‘ri yo‘lga boshlamog‘i, yax- shilik yo‘lida rahnamolik qilmog‘i, yoshlar qalbiga ishonch hamda muhabbat g‘oyalarini singdirmog‘i lozim” [12].

“Avesto”da yerga ishlov berish, urug‘ ekish va uni yetishtirish hamda jonivorlar- ni boqish, ularni oziqlantirish va ko‘payti- rish kabi faoliyatlar bilan shug‘ullanishga katta ahamiyat berilgan. Ya’nikim bu yerda kimdir dehqonchilik, ziroatchilik va chor- vachilik faoliyati bilan shug‘ullansa, o’sha insonning amallari zardushtiylik dinida eng ezgu amallar sifatida e’tirof etilishi ta’kid- lanadi. Jumladan, “Avesto”da Zardusht tili- dan “Mard ashavanlar orasida eng ganjli va foydali deb dehqonchilikni, rad dehqonni va tevaparvarlarni bilaman. Mazdaparast- lar dinining sohibi qudratini oturbon (din peshvosi), artshtar (jangchi), dehqon va tevaparvar (tuya boquvchi) deb bilaman”, deya ta’kidlanadi [10].

“Avesto”ning “Vandidod” qismi uchinchi fargard birinchi bo‘limida Oliy Xudo Ahura- mazdaga murojaat qilinib, undan zamini ham- madan ko‘ra baxtliroq bo‘lgan dunyodagi ikkinchi joy qayer ekanligi so‘ralganda, Ahu- ramazda “... unday joy bir Ashavan uy tiklan- gan makondir. O’sha uyda mo‘bad (ruhoniyy) ro‘zg‘or tebratadi. Sigirlar podasi va uy bekasi, farzandlar va suruvlar yashaydi bu uyda. Si-

girlar galasi yaxshi parvarish qilinadi... Teva- lar xuroki farovon, yaxshi itlarning rizqi se- rob. Uy bekasi baxtiyor, farzandlar shodmon. Tiriklikning go‘zal har bir hodisasi yaxshilik- ka qovushadi. Bunday joy dunyodagi ikkinchi baxtiyor zamindir”, deb javob beradi [10].

Bundan tashqari, “Avesto”da Oliy Xudo Ahuramazdaning oldida hurmatli to‘rt kishi: oturbon (din peshvosi), artshtar (jangchi), dehqon va qo‘l buyumlari yasovchi usta ekan- ligi hamda ularning amallari – fikrning rost- ligi, so‘zning to‘g‘riligi va chinakam amalligi – mard va dinparvar kishining amallari bilan tenglashtiriladi [10].

“Avesto”da yerga urug‘ qadab, undan ho- sil olish haqida quyidagi jummalarni o‘qiy- miz: “Kimda-kim bug‘doy eksa, u Ashahni (Haqiqat) ekadi. U Mazda dinini yana va yana ko‘kartiradi. U Mazda dinini yuzlab hamd-u sano, nazr-u niyoz va o‘n minglab qurbonliklar bilan quvvatlantirgandek qudratli qiladi”. “Vandidod”da yozilishicha, yerni xuddi qizni sevganday sevmok, unga yaxshi urug‘lar sepмок, uni mo‘l-ko‘l hosil beruvchi onag‘a aylantirmok kerak. Ahura- mazdaning ko‘rsatmasiga binoan, “yerga yaxshi va ko‘chli urug‘ sepмок” dunyoda- gi eng ezgu qonun hisoblanadi: “Yosh kelin eriga go‘dak hadya etganiday”, yer ham uni chap va o‘ng qo‘li bilan, o‘ng va chap qo‘li bi- lan parvarish qilgan odamga mo‘l-ko‘l hosil berishi ta’kidlanadi [14].

“Avesto”da qo‘riq yerlarga ishlov berib, suv chiqarib, bug‘doy ekadigan, mevali daraxtlar ekib, ulardan hosil oladigan, uzum- zorlar, xurmozorlar barpo etib, o‘z oila- si va jamoasini noz-ne‘matlar, don-dunlar, meva-chevalar bilan ta‘minlaydigan ishbi- larmonlar, tadbirkorlar eng ulug‘ hurmat- ehtiromga loyiq kishilar sifatida ta‘riflanadi. Bunday kishilarning mehnati tufayli yaratil- gan oziq-ovqat mahsulotlari evaziga xalqning to‘q va farovon hayot kechirishiga erishilishi ta’kidlanadi. Buning natijasida mamlakatda tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik uchun zamin yaratiladi, degan g‘oya ilgari suriladi.

Bularning barchasining asosida ijtimoiy foydali, halol, sifatli mehnat yotishi qayd etiladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar shundan dalolat beradiki, "Avesto"da tadbirkorlik bilan shug'ullanish insonning muhim shaxsiy huquqlaridan biri bo'lib, faol mehnat va tadbirkorlik qilishi, shaxsiy intilishi orqali nafaqat o'zi, balki boshqalarning ham hayotini yaxshilashi mumkinligi ta'kidlanadi. Insonning yaratuvchiligi va ishbilarmonligi zamirida u amalga oshiradigan faoliyat turining: u hunarmandchilik bo'ladimi, hayvonlarni boqib ko'paytirish yoki dehqonchilik bilan shug'ullanishmi yoxud tabiblik qilishmi – bu amallar eng ezgu amallar deya e'tirof etiladi. Yuqoridagi iqtisodiy-ijtimoiy faoliyat turlari o'z davrida insonlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishining huquqiy hamda diniy asoslari hisoblangan. Insonlarni bu faoliyat bilan shug'ullanishiga ham ma'nan, ham moddiy jihatdan rag'batlantirish hamda ularni olqishlash kabi alohida tartib-qoidalar mavjud bo'lgan.

Ushbu tarixiy hujjatning eng ahamiyatli jihati shundan iboratki, "Avesto"da tabiblik faoliyati bilan shug'ullanishning huquqiy asoslari batafsilroq yoritiladi. Tabiblik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan shaxsga qo'yiladigan talablar, tabiblik faoliyati bilan shug'ullanish qanday kishilarga ruxsat etilishi, ushbu shaxs qanday talablarga javob berishi kerakligi va tabiblik bilan shug'ullanishga ruxsat olish shartlari va tartibi belgilab berilgan. "Avesto"ning "Vandidod" qismi yettinchi fargard yettinchi bo'limi 36-41-hotlarida qayd etilishicha, Ahuramazdaga murojaat qilib, undan so'raladi:

36. Ey, olamni yaratgan Zot! Ey, Haqiqat! Mazdaparast (zardushtiylik diniga sig'inuvchi inson) tabiblik qilmoqchi bo'lsa, u dastlab o'z layoqatini kimda sinab ko'rishi kerak – mazdaparastdami yoki devparastdami?

37. Axura Mazda javob berdi: Tabiblik qilmoqchi bo'lgan mazdaparast o'z layoqatini dastavval devparastlarda sinab ko'rgani ma'qul.

Agar jarrohlik tig'i bilan davolash jarayonida uch karra ham devparast nobud bo'lsa, demak, u tabiblikka layoqatsizdir.

38. Shundan keyin uning biror-bir mazdaparastni davolashi mumkin emas.

Biron-bir mazdaparast tanasiga darmon bag'ishlash maqsadida tig' tortishi va tilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agar u mazdaparastlarni tig' bilan davolamoqchi bo'lsa, oqibat o'lim topishi mumkinligidan ogohlantirishi zarur [10].

Ushbu normalardan ma'lum bo'ladiki, tabiblik qilmoqchi bo'lgan shaxs, avvalo, devparastlar (yovuz ishlarni qiluvchilar)da sinab ko'rishi lozim. Agar devparast tuzalsa, shundan so'nggina boshqalarni muolaja qilishga ruxsat etilgan.

39. Agar u devparastlarni jarrohlik tig'i bilan uch karra davolab, unga shifo baxsh etsa, tabiblik qilishga layoqatli deb topiladi.

40. U o'shandagina mazdaparastlarni davolashi va jarrohlik tig'i bilan darmon baxsh etishi mumkin [10].

"Avesto"da turli kasalliklarni davolash vositalari – ruhiy ta'sir ko'rsatish, turli muolajalar qilish, giyohlardan tayyorlangan malhamlardan foydalanish, jarrohlik amaliyotini qo'llash bilan davolash haqida so'z boradi.

"Avesto"da tabiblikka da'vogarlariga qo'yiladigan talablar, ularning bilim va ko'nikmalarini sinov-ko'rikdan o'tkazish tartibi, xulq va odobi, davolanuvchilar bilan iliq munosabati, o'z kasbiga fidoyiligi va mas'uliyatni his qilishi lozimligi, uning mehnatini taqdirlash kabi masalalarga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Unda yozilishicha: "Jarroh mo'bad (ruhoniy)ni uning duo va alqovlari evaziga, xonaxudo (xonadon egasi)ni kam bahoda, dexxudo (qishloq oqsoqoli)ni o'rta bahoda, Shahribon (shahar qo'riqchisi)ni ortiq bahoda (uch ming stiyar (pul birligi) va Shahriyor (hukmdor)ni to'rt o'tli arava evaziga davolaydi" [10].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, insonlarning mulkka egalik qilish huquqi, ijtimoiy faoliyat turlari bilan

faol shug'ullanishi, insonning ishbilarmonligi – uning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqining dastlabki huquqiy asoslari sifatida "Avesto"da alohida diniy-huquqiy norma etib belgilanganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, dehqonchilik bilan shug'ullanib, yerdan hosil oluvchi inson Oliy Xudo – Ahuramazda tomonidan olqishlanuvchilardan biri ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Xullas, "Avesto"da tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, ushbu faoliyat bilan oilani, jamoani va mamlakatni moddiy jihatdan ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ularni rag'batlantirish, tadbirkorlik faoliyatiga u yoki bu yo'llar bilan to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi ilk qoidalar o'z aksini topgan edi. Mazkur qoidalar yurtimiz taraqqiyotining keyingi bisqichlarida amalda bo'lgan huquq manbalarida rivojlantiriladi va mazmunan boyitiladi.

Qadimgi Hindiston tarixida alohida o'rin tutuvchi "Manu qonunlari" ham insonning tadbirkorlik bilan shug'ullanishini tartibga solish bo'yicha ko'plab qoidalarni o'zida mujassamlashtirgan. Bu qonunlar braxmanizm (diniy ruhoniylar) maktablaridan biri tomonidan tuzilgan bo'lib, unga diniy kuch berish maqsadida afsonaviy podsho Manu nomi bilan atalgan. Bu kodeks o'z tuzilishiga ko'ra 12 bob, 2685 ta modddan iborat. Undagi me'yorlar, qoidalar ikki misrali she'riy yo'l bilan bayon qilingan. "Manu qonunlari" mazmuniga ko'ra, diniy-axloqiy, huquqiy normalar yig'indisi bo'lib, unda keltirilgan asosiy masalalar mulk huquqiga oid munosabatlar, nikoh va oila munosabatlari, jinoyat va jazo, sud jarayonini tartibga solish bilan bog'liq qoidalarni o'z ichiga oladi.

Insonlarning savdo-sotiq munosabatlarida ishtirok etishi, xususiy mulkka egalik qilish, uni tasarruf qilish va undan unumli foydalanish masalalarida "Manu qonunlari"ning sakkizinchi faslida fuqarolik va jinoiy ishlar hamda qurilish ishlari va turli xil kastlarga qo'llaniladigan jazo choralari haqidagi nor-

malar bayon qilingan. To'qqizinchi va o'ninchi boblarda meros va mol-mulk, ajralish va har bir kasta uchun qonuniy kasblar haqidagi odat va qoidalar nazarda tutilgan.

Qonundagi xususiy mulk daxlsizligiga oid qoidada o'zganing mol-mulkiga yolg'on va'dalar bilan egalik qilishi mumkin bo'lgan shaxs uning sheriklari bilan birgalikda turli jismoniy (yoki o'lim) jazoga tortilishi; kim bozorda bir qancha (guvohlar) huzurida mol-mulk olsa, o'sha mulkni sotib olish yo'li bilan olishi kerakligi; egasi g'oyib bo'lgan mol-mulkni podshoh uch yil davomida omonat sifatida saqlashi; uch yil ichida egasi uni talab qilishi mumkinligi, (o'sha muddatdan keyin) podshoh uni o'ziga olishi mumkinligi kabi normalar belgilangan [15].

"Manu qonunlari" xususiy mulk himoyasini barcha mulk shakllaridan qat'i nazar, birinchi o'ringa qo'yadi. Hattoki shohning o'zi ham birovning mulkini himoya qilish, uni boshqalar o'zlashtirib olishiga qarshi xatti-harakatlar va chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerakligi qat'iy belgilab qo'yilgan. Jumladan, voyaga yetmaganlarga tegishli mulk masalasida qonunning VIII bobi 27-moddasida keltirilishicha: "Podshoh voyaga yetmagan shaxsning meros (va boshqa) mulkini, u (ustozining uyidan) qaytib kelguniga qadar yoki balog'at yoshiga yetguncha himoya qiladi" [15].

"Manu qonunlari"da mulkiy munosabatlar va tadbirkorlik faoliyatiga oid qarashlar, tavsiyalar, bajarilishi talab qilinadigan sa'y-harakatlar o'z ifodasini topgan. Qonunlarda savdo-sotiq va tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar najot topuvchi 4 toifadan biri sifatida ta'riflanadi. Jumladan, to'rt kishi o'zlarini (boshqalar orqali) boyitadi, ular: brahman (diniy rohib), pul beruvchi, savdogar va shoh. Bundan tashqari, chorvachilik, sadaqa berish, qurbonlik qilish, vedani (diniy kitob) o'rganish, savdo-sotiq bilan shug'ullanish, sudxo'rlik va dehqonchilik vaishyalar (mehnatkash xalq) uchundir deb belgilanadi [15].

Jamiyatdagi insonlarga ko'proq foyda keltiradigan, ularning moddiy ehtiyojlarini

qondirishga qaratilgan mahsulot yetkazib beruvchilar – savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlar, chorvachilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchilar va boshqa kasb egalari haqida "Manu qonunlari"da ijobiy fikrlar bildirilgan. Jumladan, biror-bir kasbni egallab, shu ish bilan shug'ullanuvchi shaxslar haqida quyidagicha qoida belgilangan: "Ma'lum bir kasbiga ergashgan va o'z burchini bajargan erkaklar ular uzoqda yashasa ham, (barcha) odamlarga qadrdon bo'lib qoladilar" [15].

Shuningdek, savdo va tadbirkorlikning boshqa turlari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish bo'yicha qoidalarda belgilanishicha, tovarni sotuvchi tadbirkor bir (tovarni) boshqasi bilan aralashtirib, sifatsiz holatda ham, (og'irligi bo'yicha) yetarli bo'lmagan yoki mavjud bo'lmagan holatda ham sotmasligi kerak [15].

Tadbirkorlik yoki savdo bilan shug'ullanish uchun olinadigan qarz oldi-berdisiga bog'liq qoidada qarz beruvchi foiz evaziga o'z kapitalini ko'paytirishni shart qilib qo'yishi va har oy yuzning saksondan bir qismini olishi mumkinligi; qarzni (belgilangan vaqtda) to'lashga qodir bo'lmagan shaxs yangi shartnoma tuzmoqchi bo'lsa, to'lanishi lozim bo'lgan foizlarni to'lagandan keyin shartnomani yangilashi mumkinligi belgilangan.

Chorva mollarini yetishtirish va undan foyda olish masalalarida belgilangan qoidaga ko'ra, kunduzi (qoramolning) xavfsizligi uchun javobgarlik podachiga, agar qoramol kechasi chorva egasining uyida bo'lsa, uy egasiga yuklanadi; aks holda, cho'pon (ularning tunida ham) javobgar bo'lishi belgilangan. Bundan tashqari, chorvadorlik bilan shug'ullanishdan asosiy maqsad chorva mollarini yaxshilab boqib, g'amxo'rlik qilish orqali ularni ko'paytirib sotish, ulardan sut sog'ib olib, uni sotish kabi qoidalar ham belgilab berilgan. Chorvani ijara evaziga boquvchi chorvadorga to'lanadigan ish haqi masalasida ish haqini natura shaklida olishi mumkinligi haqida ham quyidagicha qoi-

da keltiriladi: "Sut bilan haq to'lanadigan yollanma chorvador egasining roziligi bilan o'ntadan eng yaxshisini (sigirni) sog'ishi mumkin. Agar (boshqa) ish haqi (to'lanmagan) bo'lsa, bu uning ijarasi bo'ladi" [15]. Qoramollarni sotish va sotib olish masalalarida savdo vaqtida guvohlarning ham ishtirok etishi shart qilib qo'yilgan.

Qonunlar bir tadbirkor insonning boshqa biriga zarar yetkazmasligi va agar zarar yetkazilgan taqdirda, qanday chora-tadbirlar qo'llanilishiga oid qoidalarini ham belgilaydi. Jumladan, katta yo'l yoki qishloq yaqinidagi yopiq dalada (chorva mollari) ekinlarga zarar yetkazsa, chorvadorga yuz (panas) (pul birligi) jarima solinishi belgilangan.

Qadimgi Hindiston jamiyatida kasta (tabaqalar)ning qaysi yumushlar bilan shug'ullanishi mumkinligi qat'iy belgilab qo'yilgan. Shu o'rinda qirolga shunday vazifa yuklatiladiki, kishilarning kastaga mansubligiga qarab ularni shug'ullanadigan faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lishga buyruq berishi lozimligi belgilangan. "Manu qonunlari"ning VIII bob 410-moddasida belgilanishicha: "(Qirol) Vayshiyaga (dehqon va hunarmandlar toifasiga mansub kishi) savdo qilish, qarz berish, dehqonchilik qilish yoki chorvachilikni, sudrani esa boshqa kastalarga xizmat qilishni buyursin" [15].

Bundan tashqari, ayni shu bobning 411-moddasida jamiyatda ishsizlikning oldini olish va hayot kechirishga qiynalayotgan shaxslarga amaliy yordam berish, ularni o'zlariga mos maqbul ish bilan ta'minlash, ularni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib borishlarini ta'minlash uchun jamiyatdagi boylar (yoki brahmanlar) ning kshatriyani (harbiy xizmatchi), vayshiyani tirikchilik uchun qiynalgan bo'lsa, ularni o'z kastalariga mos keladigan ishga jalb qilish uchun mehr bilan yordam ko'rsatishlari zarurligi belgilangan.

Yuqoridagi qoidalardan ko'rinib turibdiki, "Manu qonunlari"ga binoan, insonlar qaysidir faoliyat turi bilan shug'ullanishda u inson-

ning o'ziga va jamiyatga ham foyda keltirishi lozimligiga urg'u beriladi. Insonning shaxsiy intilishlari, foyda olishga qaratilgan faoliyat turi bilan shug'ullanishi, uning ishbilarmonligi va yaratuvchanligini qo'llab-quvvatlash uchun unga qarz berish va bu qarzni qaytarish muddatlari, foizlarida bir qator yengilliklar berilishi ushbu qonun-qoidalarining insonlarni tadbirkorlik bilan shug'ullanishga undovchi va bunga yetarli sharoit yaratib beruvchi ilk qonunlar ekanligining yaqqol namunasidir.

Tadqiqot natijalari tahlili

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida keltirilgan har uch manba ham qadimdan shaxslar o'rtasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha aniq belgilangan qoidalar tizimidan iborat bo'lgan. Ayniqsa, "Manu qonunlari"da shaxsning mulkka egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf qilishiga oid qonun-qoidalar ungacha bo'lgan hech qaysi manbada shu qadar aniq va tizimli tarzda bayon qilinmaganligini e'ritof etishimiz darkor.

Aytishimiz mumkinki, Qadimgi Sharqda yuzaga kelgan sivilizatsiyalar va ijtimoiy munosabatlardagi evrilishlar ularni huquqiy jihatdan tartibga solish uchun yuridik normalarni ishlab chiqish va o'rnatishni zamon talabiga aylantirgan. O'tgan davr mobaynida barcha rivojlangan o'lka, mintaq va davlatlarda aynan mamlakat fuqarolarining tadbirkorlik bilan shug'ullanishiga alohida sharoitlar yaratish, ularga imtiyozlar berish, huquqlarini himoyalash, jamiyat va davlatning iqtisodiy sohadagi hayotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, jamiyatda tadbirkorlarga hurmat va izzat-ikrom ko'rsatish, ularning adolatli faoliyat olib borishlari va mavjud qonun-qoidalariga og'ishmay rioya qilishlarini nazorat qilish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilishi o'sha mintaqadagi davlatlarning iqtisodiy jihatdan yuksalishlariga sababchi bo'lgan, aholining farovonligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Hozirgi kunda ham butun dunyo davlatlarida shaxsning moddiy intilishlari, iqtisodiy tashabbuslari, ishbilarmonligini qo'llab-quvvatlash, moddiy yaratuvchanligi, tadbirkorlik faoliyatini olib borishini yanada rag'batlantirish, shaxsning intellektual salohiyatini o'zi va jamiyatni tadbirkorlik orqali boyitishga yo'naltirish uchun barcha huquqiy asoslar yaratilmoqda. Nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro miqyosda bunday faoliyatni qo'llab-quvvatlash va fundamental asoslarini mustahkamlash maqsadida ko'plab xalqaro darajadagi ta'sirga ega normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va qabul qilinmoqda. Bunday xalqaro darajadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan normalarning O'zbekiston Respublikasining yangilanayotgan Konstitutsiyasiga ham kiritilganligi kelajakda jamiyat va davlat taraqqiyoti hamda bu sohaning har tomonlama yanada rivojlanishi va takomillashuvi uchun asos vazifasini bajaradi.

Xulosalar

Shuni alohida qayd etish lozimki, inson va fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqining shakllanishi va rivojlanishi o'zining uzoq o'tmishiga borib taqaladigan tarixiga ega. Bu tarix keng mubolag'asiz Sharqdan boshlangan, bu borada boy va serqirra huquqiy tajriba to'plangan. Afsuski, ushbu tarix millat tadqiqotchilari tomonidan deyarli o'rganilmagan. Shu munosabat bilan mulk daxlsizligini ta'minlash fuqarolarimizning tadbirkorlikning xilma-xil turlari bilan shug'ullanishiga keng yo'l ochib berish, tadbirkorlikning rivojlanishiga qarshilik ko'rsatayotgan to'siqlarga chek qo'yish, tadbirkorlarning huquqlarini kafolatlash, muhofaza qilish, tadbirkorlikka oid amaldagi qonunchilikni davr talabidan kelib chiqib takomillashtirish kabilar mamlakatimizda kun tartibiga qo'yilgan dolzarb masalalardan ekanligini hisobga olib, Sharqda, shu jumladan, Markaziy Osiyoda tadbirkorlik huquqining genezisi va evolyutsiyasiga bag'ishlangan chuqur va keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish ilmiy ja-

moatchiligimiz oldida turgan ham qarz, ham farz bo'lgan vazifalardan biridir. Shu munosabat bilan mulk daxlsizligi, mulkdorning o'z mulkini tasarruf qilish, unga egalik qilish va undan foydalanish, inson va fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini kafolatli ta'minlashning tamal toshi Sharqda qo'yilganligi har tomonlama tahsinga sazovor, ta'lim taraqqiyoti uchun o'ta zarur va davlat tomonidan bajarilishi shart bo'lgan vazifalardan biri bo'lganligi, O'rta asrlar va Yangi davrda Sharq mamlakatlarida bu an'ana davom ettirilganligi, mazmunan boyitilganligi, fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari yanada takomillashtirilganligini hisobga olib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Sharq xalqlarining o'tmishida tadbirkorlik huquqiga oid normalarni o'zida aks ettirgan huquq manbalaridan ko'chirmalar to'plab, tizimlashtirib, o'zbek tiliga tarjima qilib chop etish;

- Qadimgi Sharq huquqiy manbalarida o'z aksini topgan inson va fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqiga oid normalarning o'rta asr va yangi davr huquq manbalarining sohaga taalluqli normalari shakllanishi va rivojlanishiga ta'siri bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

- Qadimgi Sharq va antik dunyo huquq manbalaridagi inson va fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqiga oid normalarni qiyosiy tahlil qilish, ular uchun xos bo'lgan umumiylik, o'xshashlik va o'ziga xoslikni aniqlashga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borish;

- Sharq mamlakatlarida inson va fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqining genezisi va evolyutsiyasiga bag'ishlangan xalqaro anjuman va davra suhbatlarini o'tkazish;

- Ommaviy axborot vositalarida Sharq huquqiy manbalarida inson va fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini ta'minlash, ushbu huquqni turli to'siqlardan muhofaza qilish bo'yicha sinovdan o'tgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar haqida ma'lumot beruvchi maqolalar e'lon qilish, eshittirishlar va ko'rsatuvlar tashkil etish, mahallalarda o'rta va kichik tadbirkorlar ishtirokida suhbatlar, savol-javob kechalari o'tkazish;

- Amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar, chora-tadbirlar, anjumanlar, davra suhbatlari asosida chiqarilgan xulosalarni hisobga olib, mamlakatimizda inson va fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqiga oid qonunchilik normalarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash.

REFERENCES

1. Lauren PG. The Evolution of International Human Rights: Visions Seen. Pennsylvania, University of Pennsylvania Press, 2011, p. 165.
2. Vincent G.E. The Laws of Hammurabi. The University of Chicago Press. American Journal of Sociology, 1904, may, vol. 9, no. 6, p. 753.
3. Mahadevaswamy N. The Code Of Hammurabi – Perhaps The First Law Code. Journal of Emerging Technologies and Innovative Research, November 2018, volume 5, issue 11, p. 311.
4. L.W. King, The Code of Hammurabi Transl. L. W. King, with commentary from Ch.F. Horne, Ph.D. (1915) and The Eleventh Edition of the Encyclopedia Britannica, 1910- by the Rev. C. Hermann, W. Johns, M.A. Litt.D. Lillian Goldman Law Library, 2008.

5. Nagarajan K.V. The Code of Hammurabi: an Economic Interpretation. International Journal of Business and Social Science, may 2011, vol. 2, no. 8, p. 111.
6. VLĂDUĞ-SEVERIAN IACOB, ROXANA MIRONESCU. Meanings of small business and its Management. Journal of Engineering Studies and Research, 2013, volume 19, no. 4.
7. Axmedov N. Tadbirkorlikning faoliyat turi sifatida institutsionallashuvining nazariy metodologik asoslari [Theoretical and methodological foundations of the institutionalization of entrepreneurship as a type of activity]. Jamiyat va innovatsiyalar jurnali – Journal of Society and Innovation, 2022, issue 3, no. 1.
8. Abdullayev B.N. Zardushtiylik dini tarixiy-ijtimoiy asoslarining Avesto gohlarida ifodalanishi [Representation of historical and social foundations of Zoroastrian religion in Avesta]. PhD thesis. Tashkent, 2022.
9. Avesto: Yasht kitobi. Mirsodiq Is'hoqov tarjimai [Avesta: Book of Yasht]. Translation by Mirsadiq Is'hakov. Tashkent, Sharq Publ., 2001.
10. Avesto. Insoniyat tafakkuri javohirlari. [Avesta. Jewels of Human Thought]. Translated by Narzulla Jorayev. Tashkent, Ta'lim Publ., 2021.
11. Turgunov M.T. Avestoda inson huquqlarini o'rganishning metodologik muammolari [Methodological problems of studying human rights in Avesta]. PhD thesis, Tashkent, 2021.
12. Xoliqov H. Avesto fayzlari [Avesta interest]. Tashkent, People's heritage Publishing house named after Abdulla Kadiri, 2001.
13. Boboyev H., Hasanov S. "Avesto" ma'naviyatimiz sarchashmasi ["Avesta" is a reflection of our spirituality]. Tashkent, Adolat Publ., 2001.
14. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. [Avesta. Historical and literary monument]. Translation by Askar Mahkam. Sharq Publ., 2001.
15. Patrick Olivelle. Manu's Code of Law, Ed. and Transl. of the Mānava-Dharmasāstra. Ed. assistance of S. Olivelle. Oxford University Press, Inc., 2005.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.3./VWEF5280>
UDC: 342.61(042)(575.1)

O'ZBEKISTONDA SUD PRETSEDENTI: HUQUQIY ANIQLIK VA STARE DECISIS DOKTRINASI

Xodjayev Baxshillo Kamolovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti prorektori,
professor v. b., yuridik fanlar doktori
ORCID: 0009-0000-2609-0807
e-mail: bakhshillo.khodjaev@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida sud pretsedentini qo'llash istiqbollari muhokama qilingan. Anglo-sakson va romano-german huquq oilalariga mansub xorijiy huquq tizimlari misolida qiyosiy tahlil va tadqiqot ishlari olib borilgan. O'zbekiston Respublikasida "yozma huquq" tizimi amal qiladi hamda Buyuk Britaniya va AQSh huquqiy tizimlaridan farqli ravishda, bu sud pretsedenti tizimi huquqiy ahamiyatga ega emas, ya'ni ma'lum bir ish bo'yicha qabul qilingan sud qarori boshqa xuddi shunday ish bo'yicha huquqiy ahamiyatga ega bo'lmaydi. Shu sababli maqolada sud pretsedenti doktrinalari tahlil qilinib, romano-german huquq oilasiga mansub bo'lgan O'zbekiston huquq tizimiga sud pretsedentini qaysi huquq doktrinasi asosida kiritish mumkinligi bayon qilingan. O'zbekiston kabi romano-german huquq oilasiga kiruvchi Germaniya va Rossiyada ham sud pretsedenti qonun emas, balki qonundan keyin turuvchi normativ-huquqiy tusga ega bo'lmagan huquq manbasi hisoblanadi. Shu tufayli uni respublikamizda amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari yuzasidan taklif va tavsiyalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: anglo-sakson, huquq manbasi, pretsedent, sud pretsedenti, romano-german, stare decisis doktrinasi.

СУДЕБНЫЙ ПРЕЦЕДЕНТ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВАЯ ОПРЕДЕЛЕННОСТЬ И ДОКТРИНА STARE DECISIS

Ходжаев Бахшилло Камолович,
доктор юридических наук, и. о. профессора,
проректор Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются перспективы применения судебного прецедента в условиях Узбекистана. Сравнительный анализ и исследование проводились на примере зарубежных правовых систем, принадлежащих к англосаксонской и романо-германской правовым семьям. В Республике Узбекистан действует система «писаного права», и в отличие от правовых систем Соединенного Королевства и США эта система судебного прецедента не имеет юридического значения, то есть решение суда, принятое по определенному делу не имеет юридического значения в другом аналогичном деле. По этой причине в статье анализируются доктрины судебного прецедента и разъясняется, какую правовую доктрину можно использовать для введения судебного прецедента в правовую систему Узбекистана, относящуюся к романо-германской правовой семье. В Германии и России, также входящих в романо-германскую правовую семью, как и Узбекистан, судебный прецедент – это не закон, а источник права, не имеющий после закона нормативно-правовой окраски. В связи с этим были сделаны предложения и рекомендации относительно правовых механизмов его реализации в нашей республике.

Ключевые слова: англосаксонский, источник права, прецедент, судебный прецедент, романо-германский, доктрина stare decisis.

COURT PRECEDENT IN UZBEKISTAN: THE DOCTRINE OF LEGAL CERTAINTY AND STARE DECISION

Khodjayev Bakhshillo Kamolovich,
Vice-Rector of the Tashkent
State University of Law
Doctor of Law, Acting Professor,

Abstract. *This article discusses the prospects of applying court precedent in the circumstances of Uzbekistan. Comparative analysis and research were carried out on the examples of foreign legal systems belonging to the Anglo-Saxon and Romano-German legal families. In the Republic of Uzbekistan, the system of “written law” applies, and unlike the legal systems of the United Kingdom and the United States, this system of court precedent does not have legal significance; that is, a court decision made in a certain case does not have legal significance in another similar case. For this reason, the article analyzes the doctrines of court precedent and explains which legal doctrine can be used to introduce court precedent into the legal system of Uzbekistan, which belongs to the Romano-German legal family. In Germany and Russia, which are part of the Romano-Germanic legal family, like Uzbekistan, court precedent is not a law but a source of law that does not have a normative legal color after the law. Due to this, proposals and recommendations were made regarding the legal mechanisms for its implementation in our republic.*

Key words: *Anglo-Saxon, source of law, precedent, judicial precedent, Romano-German, doctrine of stare decisis.*

Kirish

Ma'lumki, sud pretsedenti anglo-sakson huquq oilasiga xos element sanaladi. Mazkur huquqiy institutning shakllanishi, huquq manbasi sifatida foydalanilishi anglo-sakson huquq oilasiga kiruvchi davlatlar (Buyuk Britaniya, Irlandiya, AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va boshqa davlatlar) qonunchiligi bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, sud pretsedenti romano-german huquqiy tizimiga kiruvchi bir qator davlatlar (Yaponiya, Xitoy, Fransiya, Xorvatiya, Serbiya va boshqa davlatlar) uchun ham begona emas. Masalan, Fransiya kassatsiya sudining Huquqiy tadqiqotlar departamenti eng muhim sud qarorlari yoki birinchi instansiya sudlari uchun alohida qiziqish uyg'otadigan sud qarorlarining qisqacha mazmunini barcha sudlarga har ikki haftada “axborot byulleteni” shaklida jo'natadi. Bundan tashqari, sud ishlarini ko'rib chiqish tendensiyalari, sud statistikasi va ularning muddatlari to'g'risida kassatsiya sudining yillik hisoboti e'lon qilinadi. Maz-

kur turdagi hisobot Litvada yiliga ikki marta e'lon qilinadi [1, 4-b.].

Material va metodlar

Ushbu tadqiqotda asosiy metod sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy sharhlash hamda tizimlashtirish usuli tanlab olingdi. Shuningdek, sud pretsedentiga oid normalarning ifodalanishi tahlil qilindi va xorijiy mamlakatlar qonunchiligi bilan taqqoslagan holda, mavjud holatni yanada takomillashtirishga oid fikrlar ilgari surildi.

Tadqiqot natijalari

Avvalambor, sud pretsedentini to'g'ri tushunib olish lozim, ya'ni sud pretsedenti huquq manbasi sifatida faqatgina anglo-sakson tizimida emas, balki romano-german tizimida ham qo'llanilmoqda. Anglo-sakson tizimida birlamchi huquq manbasi normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi [2, 159–160-b.], lekin romano-german tizimida huquqning ikkilamchi manbasi normativ-huquqiy bo'lmagan hujjat hisoblanadi. O'zbekistonda ham xuddi shunday holatni kuzatish mumkin [3, 38-b.]. O'zbekis-

ton Respublikasida “yozma huquq” tizimi amal qiladi hamda Buyuk Britaniya va AQSh huquqiy tizimlaridan farqli ravishda, bu sud pretsedenti tizimi huquqiy ahamiyatga ega emas, ya’ni ma’lum bir ish bo’yicha qabul qilingan sud qarori boshqa xuddi shunday ish bo’yicha huquqiy ahamiyatga ega bo’lmaydi [4, 6-b.].

Angliya, AQSh va ularning tizimini qabul qilgan boshqa mamlakatlarda sud pretsedenti prinsipi amal qiladi: muayyan ish yuzasidan chiqarilgan qaror teng va pastki instansiya sudlarining barchasi uchun, basharti ular shunga o’xshash ish ko’rsa, majburiydir. Natijada rasman amal qilayotgan qonun, aslida, kuchga ega bo’lmagan vaziyat vujudga keladi [5, 45-b.].

Romano-german huquq oilasiga kiruvchi Germaniyada ham, Rossiyada ham sud pretsedenti qonun emas, balki qonundan keyin turuvchi normativ-huquqiy tusga ega bo’lmagan huquq manbasi hisoblanadi [6, 83-b.]. Germaniya sud pretsedentini qanday joriy qilgan? Germaniya sud pretsedentini “High Court Judgement Uniformity Act” – Oliy sudning unifikatsiyalangan qarori ko’rinishida joriy qilgan [7, 128-b.].

Huquqning manbayi normativ-huquqiy hujjatlar bo’lgan bizning huquqimizda sud pretsedenti (yoki kengroq *stare decisis*) qonunlardan keyingi ikkinchi darajada bo’lib, mazkur qonunlar mazmuni, g’oyalari va prinsiplari doirasida amal qiladi.

Bu bizga sudning huquqiy pozitsiyasini aniqlash uchun kerak. Germaniya va Rossiyada ham sud pretsedenti mavjud, faqat u qonun kabi majburiy kuchga ega emas [8, 178-b.].

Bunda sud hujjatlari asosan ikki shaklda huquqiy munosabatlarga ta’sir qiladi:

a) faqat muayyan nizoni sudda hal qilishda o’sha ishga nisbatan;

b) nafaqat sudda ko’rilayotgan nizo, balki muayyan sohadagi barcha munosabatlarga nisbatan, bu shakl ingliz huquqida tarqalgan bo’lib, sud pretsedenti keng sohadagi muno-

sabatlarni tartibga soladi (normativ-huquqiy hujjat kabi) [9, 108-b.].

O’zbekistonda ham allaqachon sud hujjatlarining keng miqyosdagi ta’siri mavjud. Bular konstitutsiyaviy sud qarorlari, bundan tashqari, Oliy sud Plenumi tushuntirishlari (masalan, qarorlari) bo’lib, ular nafaqat sud ishi doirasida, balki barcha huquqni qo’llovchilar uchun muayyan normani qo’llashda majburiydir.

O’zbekiston Respublikasining “Sudlar to’g’risida”gi qonuni 21-moddasiga ko’ra, O’zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumi qonunchilikni qo’llash masalalariga doir qarorlar loyihalari chiqaradi. Qonunning 25-modda 4-qismiga asosan, qonunchilikni qo’llash masalalari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar, ushbu tushuntirish berilgan qonunchilikni qo’llayotgan davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir.

Tadqiqot natijalari tahlili

Butun dunyoda huquqiy aniqlik tamoyilini qo’llash dolzarb bo’lib qolmoqda (huquqiy aniqlik prinsipi barcha uchun aniq va adolatli o’yin qoidalarini belgilash va ta’minlashni nazarda tutadi [10, 880-b.]).

Qonun normalari mavhumligi, xilma-xiligi, kengligi, tez o’zgarishi, qonun chiqarish faoliyatining kengligi va unda professionallikni ta’minlash qiyinligi (populizm va lob-bizm kuchliligi) turli noaniqliklar, normalar ziddiyati, shuningdek, sud amaliyotida ham chalkashliklarga olib kelmoqda [11, 1440-b.]. Ayniqsa, O’zbekistonda normalarning tez o’zgarishi, turlicha talqin qilinishi, ularni qo’llashdagi ziddiyatlar huquqiy aniqlikni qaror toptirishni eng muhim vazifa qilib qo’yimoqda. Huquqiy aniqlik va barqarorliksiz esa islohotlarni amalga oshirib bo’lmaydi. Huquqiy aniqlik esa *stare decisis* doktrinasi hamda sudlar mustaqilligi, qonuniylik prinsiplari uyg’unligini taqozo etadi [12, 18-b.].

Huquqiy aniqlik, avvalo, sudlar tomonidan normalarni aniq qo'llashda namoyon bo'ladi. Bunday aniqlikka erishish uchun quyi sudlar xatolarini kamaytirish va sud amaliyotining bir maromdaligini ta'minlash uchun *stare decisis* (o'zb. "bir qarorda turish", ingl. "to stand by things decided") doktrinasini qo'llash zarur. Bu sud pretsedenti shaklida ham amalga oshirilishi mumkin [13].

Sud pretsedentining ijobiy taraflari:

1) aniq sud pozitsiyasini shakllantiradi va sudning huquqiy pozitsiyasi barqarorligini ta'minlaydi (qonun va adolat ustuvorligi nuqtayi nazaridan sud amaliyotini unifikatsiya qilishga yordam beradi), xatoliklarini kamaytiradi. Masalan, korporativ nizolar, QQS masalalarida;

2) odil sudlovni osonlashtiradi, sud yuklamalarini kamaytiradi;

3) sudlarda tashqi omillar (tazyiqlar) va korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi, sud mustaqilligiga yordam beradi (ayniqsa, davlat idoralari va tadbirkorlar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda, bojxona, soliq va boshqa organlar o'z idoraviy manfaatlarini ko'zlaganda);

4) huquqni qo'llash amaliyotini oldindan bilish (*predictable*) va prognozlash imkonini beradi (bu tadbirkor va investorlar uchun juda muhim, masalan, xususiy mulk himoyasi bo'yicha).

Sud pretsedentini amalga oshirish mexanizmlari

Sud pretsedentini amalga oshirish mexanizmlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1) ochiq tarmoqdagi sud qarorlarini tahlil qilish orqali sudning aniq huquqiy pozitsiyasini e'lon qilish;

2) oliy sud tomonidan ishni qayta ko'rishning rad etish asoslari tahlili;

3) preyuditsial so'rov instituti (modeli)ni qo'llash.

Ayniqsa, soliq qonunchiligining tez o'zgarishi va uning mukammallikdan ancha yiroqligi, ushbu qonunchilik butun biznes muhiti-

ga ta'sirga egaligi ushbu sohadagi sud amaliyotida bir qarorda turish, sudlar amaliyoti uyg'unligi, bu sohada qonun ustuvorligi va adolat prinsiplarini qo'llash zaruriyatini keltirib chiqardi. Soliq, ma'muriy va fuqarolik huquq sohalarida huquqiy aniqlik hamda qonun va adolatni idoraviy lobbizm va turli tiyiqsizlikdan himoya qilish aynan sud qarorlari ta'sirini oshirish, qonunni to'g'ri qo'llash bo'yicha sud pozitsiyasini shakllantirish va uni keng qo'llash bilan ta'minlanadi. Qolaversa, sudlar mustaqilligi ham yuqoridagi hodisalar bilan ro'yobga chiqadi.

Masalan, Soliq kodeksi [14]dagi prinsiplarni soliq munosabatlarida qo'llash, fuqarolik va iqtisodiy ishlarda da'vo mudдати va adolat prinsiplarini uyg'unlashtirish, ma'muriy munosabatlarning fuqarolik huquqiy oqibatlarini hal qilishda (snoslar) sudlarga qonunni qo'llashda huquqning asosiy g'oyalari va prinsiplari doirasida erkinlik lozim.

Sud pretsedenti nafaqat iqtisodiy, balki ma'muriy va fuqarolik odil sudlovida ham qo'llanilishi lozim.

Sud pretsedentini qo'llash xavflari quyidagilar bo'lishi mumkin:

a) ma'lumki, qonun xalq vakillari tomonidan qabul qilinib, uning irodasini anglatadi. Sud pozitsiyalari esa bunday irodaga bevosita ega emas. Shu sababli sud pretsedenti xalq irodasidan chetga chiqmasligini ta'minlashga hushyor bo'lish talab etiladi;

b) Oliy sud tomonidan yaratiladigan sud pretsedenti (u majburiy bo'lgan taqdirda) quyi sudlar mustaqilligini cheklashi mumkin [15, 2194-2195-betlar].

Lekin huquqiy aniqlik prinsipi sudlar mustaqilligidan ustundir, shu sababli ham qonun doirasida umumiy erishilgan sud pozitsiyasi sudlar mustaqilligiga daxl qilishi minimaldir.

O'zbekistonda sud pretsedentini qo'llash mexanizmlari

Bu Oliy sud (tegishli hay'atlari) tomonidan shakllantiriladigan muayyan masala

bo'yicha qarorlardir. Bunda qarorning barcha qismi ham pretsedent yaratmaydi. Qarorlar (pretsedent) nafaqat muayyan ish, balki shu masala bo'yicha boshqa ishlarga ham qo'llanilishini nazarda tutgan holda, aniq bir hay'at tomonidan qabul qilinishi, qaysi qismi pretsedent kuchiga egaligi aniqlanishi lozim. Bunda, muhimi, pretsedent barcha sudlar uchun majburiy bo'lishi shart emas, agar sud-da boshqa pozitsiya bo'lgan taqdirda, uning qarori o'z kuchida qolishi kerak, ehtimol, bu yangi pretsedent yaratishi mumkin.

Pretsedent yaratish sud hujjatlari aniqlanishi (qaror, Plenum qarori, tushuntirishlar va h.k.), doimiy o'zgarishlar kiritilishi va ularni olib borish qiyin bir jarayondir. Buning aniq mexanizmini ishlab chiqish vaqt talab qiladi.

Xulosa

Bugun sud pretsedentini O'zbekiston sharoitida qanday joriy qilish mumkinligi muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada

Germaniya va Rossiya tajribalari asosida sud pretsedentini amalga oshirishning quyidagi mexanizmlarini taklif qilish mumkin:

birinchidan, ochiq tarmoqdagi sud qarorlarini tahlil qilish orqali sudning aniq huquqiy pozitsiyasini e'lon qilish;

ikkinchidan, Oliy sud tomonidan ishni qayta ko'rishning rad etish asoslarini tahlil qilish;

uchinchidan, preyditsial so'rov instituti (modeli)ni qo'llash.

Mazkur mexanizmlarni amalga oshirish masalalarini kompleks o'rganish, jarayonga ham amaliyotchi, ham nazariyotchi yuristlarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Negaki sud pretsedenti amalda ishlab ketishi uchun u amaliyot bilan mos kelishi kerak. Buning uchun esa uni aniq-ravshan belgilab olish zarur. Tegishli normaning aniq bir shaklga kelishi esa nazariyotchi olimlarning ishtirokisiz amalga oshishi imkonsizdir.

REFERENCES

1. Karimov A. Sud pretsedenti anglo-sakson huquq oilasiga kiruvchi davlatlar qonunchiligining ajralmas qismi bo'lsa-da, romano-german huquqiy tizimiga kiruvchi bir qator davlatlar uchun ham begona emas [Although judicial precedent is an integral part of the legislation of countries belonging to the Anglo-Saxon legal family, it is not alien to a number of countries belonging to the Romano-Germanic legal system.]. "Milliy qonunchilikda sud pretsedenti instituti elementlarini joriy etish: zarurat, amaliyot va xorijiy tajriba" davra suhbat materiallari – Materials of the roundtable discussion "Introduction of the elements of the institution of judicial precedent in the national legislation: necessity, practice and foreign experience". Tashkent, 2022, p. 20.
2. Catlett F.W. The Development of the Doctrine of Stare Decisis and the Extent to Which It Should Be Applied, 21 Wash. L. Rev. & St. B.J, 1946, p. 158. Available at: <https://digitalcommons.law.uw.edu/wlr/vol21/iss3/2>
3. Muhammadiyev A.A. Fuqarolik huquqi tamoyillarining nazariy va amaliy muammolari [Theoretical and practical problems of the principles of civil law]. Tashkent, TSIL Publ, 2010, p. 258.
4. Hardisty J. Reflections On Stare Decisis, Indiana Law Journal, 1979, vol. 55, iss. 1, article 3. Available at: <http://www.repository.law.indiana.edu/ilj/vol55/iss1/3>
5. Toshev B.N. Milliy huquq tizimini rivojlantirishda huquqiy qarashlar va yuridik fanning o'rni. Yuridik fan va huquqni qo'llash amaliyotining dolzarb muammolari [The role of legal

views and legal science in the development of the national legal system. Actual problems of legal science and law enforcement practice]. Proceedings of the scientific-practical conference, 2020, vol. 1, Tashkent, Lesson press Publ., pp. 42–48.

6. Gushchina N., Glukhoedov M. Judicial precedent in Russian legal system: history, theory and practice. *Modern law* 2, pp. 79–85.

7. Stainer p., König D. The Concept of Stare Decisis in the German Legal System – a Systematically Inconsistent Concept with High Factual Importance. *Studia Iuridica Lublinensia*, 2018, vol. XXVII, no. 1, pp. 121–130. Available at: Pobrane z czasopisma *Studia Iuridica Lublinensia* <http://studiaiuridica.umcs.pl>

8. Civitarese S. A European convergence towards a stare decisis model? *Revista Digital de Derecho Administrativo*, 2015, no. 14, pp. 173–194. Available at: <http://www.redalyc.org/articulo.oa?id=503856210009>

9. Bodrov S.Y. A judicial precedent in the system of sources of Russian law: theory and practice. Abstract of PhD thesis. Ulyanovsk, SEIHPO “Ulyanovsk State University”. 2004, 208 p.

10. Lewis S. Precedent and the Rule of Law Author Notes. *Oxford Journal of Legal Studies*, 2021, vol. 41, issue 4, pp. 873–898, Doi: 10.1093/ojls/gqab007

11. Lash K.T, Originalism, Popular Sovereignty and *Reverse Stare Decisis*. 93 *Va. L. Rev.* 1437, 2007, pp. 1438–1471

12. For a more in-depth analysis cf. P. Lassahn, *Rechtsprechung und Parlamentsgesetz*, Mohr Siebeck. 2017, p. 18, 33,

13. Solanki S. What is stare decisis in simple terms? Available at: <https://legal.thomsonreuters.com/blog/the-doctrine-of-stare-decisis/>

14. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi [Tax Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Yuridik adabiyotlar Publ., 2022.

15. Kurt T. Lash, The Cost of Judicial Error: Stare Decisis and the Role of Normative Theory. 89 *Notre Dame L. Rev.* 2014, no. 5, pp. 2189–2218.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.3./IOAI7145>
UDC: 343.268.3(045)(575.1)

KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK JINOYATI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS BELGILARI

Haydarov Shuhratjon Djumayevich,

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi,
kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori v.b.,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID:0000-0002-8188-7410
e-mail: Xaydarovshuxrat@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyati tushunchasi, jinoyatning o'ziga xos belgilari hamda ushbu jinoyatning asosiy tushunchalariga oid masalalar bayon etilgan. Shuningdek, bugungi kunda respublikamizda tibbiyot xodimlarining o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining yildan yilga o'sib borayotganligi, bu esa ushbu jinoyatlarga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish zarurati asoslantirilgan. Bundan tashqari, tibbiyot xodimlari tomonidan vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining asosiy tushunchalari olimlar fikrlari asosida tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda, maqolada tibbiyot xodimi o'z vazifalarini lozim darajada bajarishni ta'minlashga oid qonunchilik normalaridagi kamchiliklar, aholiga xizmat ko'rsatish sohasida tegishli ruxsat beruvchi yoki taqiq o'rnatuvchi tizimlarni huquqiy ta'minlash darajasining yetarli emasligi, ayrim munosabatlarning yetarli darajada tartibga solinmaganligi kabi holatlar borligi ham o'rganilgan. Maqolada tibbiyot xodimlarining o'z vazifasini bajarmaslik jinoyati uchun javobgarlik nazarda tutilgan qonunchilik normalarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, bemor, tibbiy yordam ko'rsatmaslik, tibbiyot xodimi, kasb yuzasidan vazifalarini bajarmaslik, ijtimoiy xavfli qilmish, ehtiyotsizlik, jinoiy javobgarlik, shikast yetkazish, bemorga yordam ko'rsatmaslik, maxsus qoidalar, xavf ostida qoldirish, beparvolik, jazo.

ПОНЯТИЕ И ХАРАКТЕРНЫЕ ПРИЗНАКИ ПРЕСТУПЛЕНИЯ НЕНАДЛЕЖАЩЕГО ИСПОЛНЕНИЯ СВОИХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБЯЗАННОСТЕЙ

Хайдаров Шухратжон Джумаевич,

доктор философии по юридическим наукам (PhD), и. о. профессора
кафедры «Уголовное право, криминология и борьба с коррупцией»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье раскрываются понятие преступления ненадлежащего исполнения служебных обязанностей медицинским персоналом, особенности состава преступления и вопросы, связанные с основными понятиями данного преступления. Также она основана на том, что в нашей республике из года в год увеличивается преступность медицинских работников, не выполняющих свои обязанности должным образом, а значит, необходимо дальнейшее совершенствование системы борьбы с этими преступлениями. Кроме того, на основе мнений ученых были проанализированы основные понятия состава преступления ненадлежащего исполнения служебных обязанностей медицинским персоналом.

В статье выявлены недостатки правовых норм, связанные с обеспечением надлежащего исполнения медицинских работников своих обязанностей, недостаточный уровень правовой защиты соответствующих разрешительных или запрещающих систем в сфере оказания государственных услуг, а также связанные с недостаточным регулированием таких отношений на основании случаев на практике. В статье также даются предложения и рекомендации по совершенствованию правовых норм, предусматривающих ответственность за преступления ненадлежащего исполнения служебных обязанностей медицинским персоналом.

Ключевые слова: преступление, больной, неоказание медицинской помощи, медицинский работник, невыполнение профессиональных обязанностей, общественно опасное деяние, неосторожность, уголовная ответственность, причинение вреда, неоказание помощи больному, особые правила, создание опасности, неосторожность, наказание.

THE CONCEPT AND CHARACTERISTIC SIGNS OF THE CRIME OF PROFESSIONAL FAILURE TO FULFILL DUTIES

Shukhratjon Jumaevich Khaydarov,

Department of Criminal law, Criminology and Fight against
Corruption of Tashkent State University of Law
Acting Associate Professor,
Doctor of Philosophy in Law, (PhD)

Abstract: This article describes the concept of the crime of improper performance of duties by medical personnel, specific features of the crime, and issues related to the basic concepts of this crime. Also, it is based on the article that the crime of medical personnel not performing their duties properly is increasing year by year in our republic, which means that there is a need to further improve the system of combating these crimes. In addition, the main concepts of the crime of improper performance of duties by medical personnel were analyzed based on the opinions of scientists. In addition, in the article, the shortcomings of the legal norms related to ensuring the proper performance of their duties by medical personnel, the insufficient level of legal protection of the relevant permitting or prohibiting systems in the field of public services, and some relations are also based on the fact that there are cases like insufficient regulation. In the article, suggestions and recommendations are also given regarding the improvement of the legal norms, which stipulate responsibility for the crime of improper performance of duties by medical personnel.

Keywords: crime, patient, failure to provide medical care, medical worker, failure to perform professional duties, socially dangerous act, negligence, criminal liability, injury, failure to provide assistance to the patient, special rules, endangerment, negligence, punishment.

Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda inson hayoti, sog'lig'ini ishonchli himoya qilish, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. O'zbekistonda jinoyat hamda jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish sohasidagi davlat siyosatining muhim yo'nalishlarini belgilab bergan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi

PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning qabul qilinishi sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bosqichi bo'ldi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini

takomillashtirish konsepsiyasining birinchi yo'nalishida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini samarali himoya qilishga to'sqinlik qiladigan huquqiy bo'shliqlar, qarama-qarshiliklar va "oq dog'lar"ni bartaraf etish hamda Jinoyat kodeksida qo'llanadigan ayrim atama va tushunchalar mazmuniga aniq ta'rif berish va yagona shaklda qo'llash orqali takomillashtirish ushbu sohani rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganligi diqqatga sazovordir.

Ushbu islohotlar sharoitida inson hayoti va sog'lig'ini jinoyat qonuni yordamida muhofaza qilish ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan kasb bo'yicha o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik insonning hayoti yoki sog'lig'iga xavf solayotgan qilmish sifatida jiddiy ijtimoiy xavf tug'diradi. Chunki inson o'z salomatligi va hayotini buning uchun mas'ul shaxslarga ishonib topshirgani holda, fuqarolar sog'lig'i va hayotini asrab-avaylashi zarur bo'lgan shaxslar tomonidan kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaslik oqibatida badanga shikast yetkazilishi yoki jabrlanuvchining o'lishi mazkur qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur qilmish bir vaqtning o'zida tegishli xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan tartibga ham tajovuz qiladi.

Dunyoda inson hayoti va sog'lig'ini jinoyat qonuni yordamida muhofaza qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Butunjahon Sog'liqni saqlash tashkiloti bergan oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, "jahonda bemorlarning 23 %ga tibbiy yordam ko'rsatilmagan, 0,7 % esa malakasiz tibbiy aralashuv oqibatida vafot etgan" [1]. Har yili AQShda 100 ming, Buyuk Britaniyada 70 ming, Italiyada 50 ming, GFRda 25 ming, Avstraliyada 18 ming, Vengriyada 10 ming kishi o'rtacha hisobda tibbiyot xodimlarining vazifalarini bajarmaganligi oqibatida vafot etadi [2]. Shu nuqtayi nazardan kasb vazifalarini bajar-

maslik inson hayoti va sog'lig'iga xavf soladigan ijtimoiy xavfli qilmish sifatida baholanib, ushbu mavzuda tadqiqot olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilik holati tahlili kasb yuzasidan o'z vazifasini bajarmaslik jinoyati muttasil oshib borayotganligini ko'rsatadi. Xususan, 2021-yilda mazkur jinoyatlar bo'yicha 108 ta, 2022-yilda 121 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan [3]. 2022-yilda ushbu jinoyatning 13 %ga oshganligi ham uning ijtimoiy xavfi yuqoriligini ko'rsatadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda sog'liqni saqlash va boshqa tizimlarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida tibbiyot va boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatuvchi xususiy tadbirkorlik subyektlarining soni ortganligi ham mazkur jinoyatlarining o'sishiga sabab bo'lmoqda.

Material va metodlar

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi JKda nazarda tutilgan "Kasb bilan bog'liq jinoyatlar" deganda, xodimlarning kasb yuzasidan vazifasini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi oqibatida ehtiyotsizlik natijasida insonning hayoti yoki sog'lig'iga shikast yetkazgan ijtimoiy xavfli qilmishlar (harakatlar yoki harakatsizlik) tahlil qilinib, qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari

Shaxsning kasbiga beparvoligi yoki insofsizlik bilan munosabatda bo'lishi tufayli kasb yuzasidan vazifasini bajarmaganligi badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi yoxud odam o'lishiga sabab bo'lgan taqdirda, qilmish va uning oqibati o'rtasidagi sababiy bog'lanish borligi aniqlanishi shart. Mazkur jinoyatni sodir etgan xodim jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim. Ilmiy adabiyotlarda kasb yuzasidan vazifalarini lozim darajada bajarmaslik deganda, odatda, maxsus subyektlar o'zlarining yordam yoki xizmat ko'rsatish borasidagi vazifalarini lozim darajada bajarmasligi tushuniladi [4]. Bunda shuni qayd etib o'tish lozimki, qilmishda ji-

noyat tarkibi mavjud deb topish uchun shaxsga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilganligi va sodir etilgan harakat (harakatsizlik) o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligi asos bo'ladi.

Yuqoridagi "kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik" atamasiga berilgan ta'riflar tahlili asosida "aybdorning kasb yuzasidan vazifalarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi" deganda, "shaxsning unga kasb yuzasidan vazifalarini bajarayotganda, sovuqqonligi yoki vijdotsizlarcha munosabati tufayli rasmiy talablar, qonun-qoidalarga to'liq yoki qisman muvofiq kelmaydigan xatti-harakatlari yoki harakatsizligi tushuniladi", degan xulosaga keldik.

Bu esa, o'z navbatida, mazkur jinoyat sodir etilishiga qonunga hurmatsizlik, huquqiy madaniyatning yetishmasligi ham sabab bo'lishini ko'rsatmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Qonunlarga hurmat odamlarimizning huquqiy ongi va madaniyati asosida shakllanadi. Ya'ni ayrim kishilar jazodan qo'rqib, qonunga itoat etsa, ayrimlar bolalikda olgan tarbiyasiga ko'ra qonunni hurmat qiladi. ... Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq, Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart" [5].

Tadqiqot natijalari tahlili

Shaxsning kasb vazifalarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi tegishli korxona, tashkilot va muassasaning obro'siga ham putur yetkazadi. Bu muammo ilmiy-texnika taraqqiyoti hamda mutaxassis kadrlarning kasbiy mahoratiga qo'yiladigan talablar oshib borayotgan hozirgi davr sharoitlarida alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning o'z kasbiy vazifalariga beparvoligi yoki insofsizlik bilan munosabatda bo'lishi ba'zan boshqa fuqarolar umriga zomin bo'lmoqda, ularning salomatligi

ga zarar yetkazmoqda. Chunonchi, 2008-yil Namangan viloyat bolalar shifoxonasida tibbiyot xodimlarining jami 89 nafar bolaga OIV kasalligi/OITSni ommaviy yuqtirishi [6], 2008-yil Namangan shahar bolalar shifoxonasida tibbiyot xodimlarining jami 56 nafar bolaga OIV kasalligi/OITSni ommaviy yuqtirishi [7], 2008-yil Namangan tuman yuqumli kasalliklar shifoxonasida tibbiyot xodimlarining jami 10 nafar bolaga OIV kasalligi/OITSni ommaviy yuqtirishi [8] kabi fojiali voqealar ham so'zimizni tasdiqlaydi. So'ngi yillarda bunday holatlar soni ko'payib borayotganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi [9].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Keyingi ikki yilda fuqarolarimizning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, turmush sharoitlarini yaxshilash, yillar davomida to'planib qolgan muammolarni hal etishga qaratilgan 90 dan ziyod qonun hamda 2 mingdan ziyod farmon va qarorlar qabul qildik" [5].

Jinoyat-huquqiy sohada amalga oshirilgan qator islohotlarning pirovard maqsadi inson huquqlarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etishga qaratilgan. Ayni damda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, unga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustdagi "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi 265-I-son Qonuni 16-moddasiga muvofiq, kasal bo'lib qolganda, mehnat layoqatini yo'qotganda va boshqa hollarda fuqarolar profilaktik, tashxis qo'yish-davolash, kuch-quvvatni tiklash, sanatoriy-kurort, protez-ortopediya yordami va boshqa xil yordamlar, shuningdek, bemorlar, mehnatga layoqatsiz va nogiron kishilarni boqish-parvarishlash yuzasidan ijtimoiy chora-tadbirlar, shu jumladan, vaqtincha mehnatga layoqat-

sizlik nafaqasi to'lashni o'z ichiga oladigan tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqiga ega [10].

Qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq, kasb vazifalarini bajarishi shart bo'lgan shaxsning uzrli sababsiz shunday vazifani bajarmaganligi badanga og'ir shikast yoki odam o'limiga sabab bo'lishi ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfini oshiradi.

Shuningdek, aytish joizki, oxirgi yillarda kasb yuzasidan vazifalarini bajarmaslik oqibatida jabrlanuvchilarning halok bo'lishi va ularning sog'lig'iga shikast yetkazish hollari ko'paydi. Mazkur jinoyatlarni sodir etishda aybdor bo'lgan xodimlar ba'zan jazosiz qoladilar yoki ularga yengil jazolar tayinlanadi. Bu hol shu bilan izohlanadiki, ko'rib chiqilayotgan jinoyat transport harakati bilan bog'liq jinoyatlar, ko'p sonli qurbonlarga olib keluvchi boshqa jinoyatlar ham ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra bir xil jinoyatlar toifasiga kiradi, ammo ularni sodir etishda aybdor shaxslarga, kasb xodimlaridan farqli o'laroq, o'z kasbiga nisbatan beparvolik bilan munosabatda bo'lgani uchun amalda ko'proq ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanadi. Bunday amaliyot ham kasb yuzasidan vazifalarini bajarmaslik jinoyati uchun jazo tayinlash amaliyotini ilmiy-huquqiy o'rganish zaruriyatidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining amalda gi Jinoyat kodeksida turli kasb egalarining javobgarligiga doir bir necha yangi maxsus normalar emas, balki umumiy normalar nazarda tutilgan. JK 116-moddasida kasb yuzasidan vazifalarini lozim darajada bajarmaslik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Moddaning birinchi qismida shaxsning kasbiga nisbatan beparvoligi yoki insofsizlik bilan munosabatda bo'lishi tufayli kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganligi oqibatida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetgani uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Shu moddaning ikkinchi qismida qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq, bemorga yordam ko'rsatishi shart bo'lgan

shaxsning uzrli sababsiz yordam ko'rsatmaganligi tufayli badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetgani uchun javobgarlik belgilangan. Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar ehtiyotsizlik natijasida odam o'limiga sabab bo'lgani uchun javobgarlik ayni shu moddaning uchinchi qismida keltirilgan. Nihoyat, O'zbekiston Respublikasi JKning 116-moddasi to'rtinchi qismida moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar ehtiyotsizlik natijasida insonlar o'limi yoki boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan hollar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Shu o'rinda ushbu jinoyatga oid asosiy tushunchalarga to'xtalib o'tsak. O'zbek tilining izohli lug'atida yozilishicha, "kasb – ish faoliyatning ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar" [11]; "vazifa – amalga oshirilishi, hal qilinishi lozim bo'lgan, ko'zda tutilgan maqsad, maqsadli ish" [11]. "Kasb vazifalari" deganda, shaxsning ish faoliyatidan, kasbidan kelib chiqib amalga oshirilishi, hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalar tushuniladi.

Vazifaning majburiyat va burch bilan o'zaro munosabati va nisbati to'g'risidagi masalaga oydinlik kiritib o'tish lozim, chunki mohiyatan o'zaro yaqin bo'lgan ushbu tushunchalar o'rtasidagi tafovutni aniqlash ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

"Majburiyat – g'ayriixtiyoriy vazifa, burch yoki biror majburiy ish"; "burch esa etilishi, bajarilishi majburiy bo'lgan vazifa, majburiyat"dir [11].

Burch jamiyat va davlat tomonidan belgilangan yoki tan olingan va huquqiy normalar yoki axloqiy, tarbiyaviy qoida va udumlarda o'z aksini topgan talablarni bajarish zaruriyatidir.

Burch asosan qoidalar, axloqiy normalardan, majburiyat esa aksar hollarda shartnoma va bitimlardan kelib chiqadi. Burch shaxs tug'ilganidan to umrining oxiriga qadar davom etadi, majburiyat esa shartnoma-

ning amal qilish davrida bo'ladi. Shuningdek, burch davlat va jamiyat tomonidan belgilanib, uning bajarilishi talab etiladi [12].

Yuqoridagilarni O'zbekiston Respublikasi JKning 116-moddasiga tatbiq etadigan bo'lsak, kasbiy vazifa, majburiyat buzilgan taqdirda, jinoiy javobgarlik kelib chiqishi mumkin. Shuningdek, burchlar aniq va cheklangan doirada bo'lib, ular harbiy xizmat, ota-onalik, farzandlik burchlari kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Burch bajarilmaganda, ishning holatlariga ko'ra, jinoyat qonunining tegishli moddalariga ko'ra jinoiy javobgarlik yuzaga kelishi mumkin.

Shuningdek, kasbiy vazifa va majburiyat tushunchalarini ham o'zaro farqlash lozim. Ushbu tushunchalar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, yuzaga kelish asosi (manbai)ga ko'ra farqlanadi. Kasbiy majburiyat qoida tariqasida fuqarolik-huquqiy shartnoma, kelishuv asosida vujudga keladi; kasb vazifasi esa shaxsning aniq kasbiy faoliyati doirasida mehnat shartnomasi asosida kelib chiqadi. Ya'ni muayyan ish shaxsiga fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida yuklangan bo'lib, uning ishini lozim darajada bajarmasligi natijasida JK 116-moddasida ko'zda tutilgan oqibatlar kelib chiqsa, bunda majburiyat buzilgan bo'ladi. Jumladan, bog'cha tarbiyachisi JK 116-moddasida ko'zda tutilgan jinoyat subyekti bo'lgan taqdirda, u kasb vazifasini lozim darajada bajarmagan, xuddi shunday vaziyatda enaga (fuqaroviy-huquqiy tartibda bolaga qarash uchun yollangan shaxs) kasbiy majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan bo'lsa, uning oqibatida qonunda nazarda tutilgan oqibat ro'y bersa, yuqoridagi modda asosida javobgarlik yuzaga keladi. Lekin bu tushunchalarni farqlash yoki ularning o'zaro munosabatini o'rganish jinoyatni kvalifikatsiya qilishga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

Shu o'rinda "kasb" hamda "mansab" tushunchalari o'zaro bir-biridan farq qilishini ham eslatib o'tish lozim.

Ushbu masala bo'yicha tadqiqot so'rovnomasi o'tkazilganda, "Kasb yuzasidan vazi-

falarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatini kvalifikatsiya qilishda kasb va mansab tushunchalarini farqlash ahamiyatga egami?" degan savolga so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 54 %i "ahamiyatga ega emas, chunki mansabdor shaxs tomonidan o'z kasbga kiruvchi vazifalarni bajarmasligi ham kasb yuzasidan o'z vazifalarni bajarmaslik moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak", deb javob berishdi. Ushbu holat ayrim amaliyot xodimlarining mazkur masala yuzasidan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emasligidan dalolat beradi.

"Mansab – ish, amal, ahvol, holat, mas'ul vazifa, lavozim" [9] kabi ma'nolarni anglatadi. Mansabga ega bo'lgan shaxs mansabdor shaxs deb yuritiladi. JKning "Atamalarining huquqiy ma'nosi" deb nomlangan sakkininchi bo'limiga muvofiq, doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifasini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni soddir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek, xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, mansabdor shaxsning mansabi yuzasidan vazifasini bajarmasligi JK 116-moddasi ta'sir doirasiga tushmaydi, balki ularning qilmishi JK Maxsus qismi mansabdorlik jinoyatlariga oid moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda JK 116-moddasi ikkinchi qismi dispozitsiyasida qo'llanilgan "qonun" yoki "maxsus qoidalar" tushunchalarini o'zaro farqlash lozim. Qonun "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning 8-moddasiga binoan, "O'zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga

soladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o'tkazish yo'li bilan qabul qilinadi" [14]. Maxsus qoidalar esa qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar, korxona, muassasa, tashkilotlarning ichki nizom, ustavlari, yo'riqnoma va boshqa shu kabilarda belgilangan muayyan faoliyat turini tartibga soluvchi qoidalardan iborat bo'ladi. JK 116-moddasini qo'llashda har bir alohida holatda aynan qaysi qonun va (yoki) qonunosti normativ-huquqiy hujjatning qaysi bandi buzilganligi aniqlanishi lozim.

Shu o'rinda JK 116-moddasi nomiga ko'ra, "kasb vazifalari" to'g'risida so'z borayotganligi va qilmishni jinoyat deb baholash uchun kasb vazifalarining buzilishi talab qilindi, degan xulosaga kelish mumkin. Holbuki, kasb vazifalari deganda, ikki yoki undan ortiq vazifalarni tushunish mumkinligini inobatga olsak, basharti aybdor bitta kasb vazifasini buzsa va buning natijasida tegishli oqibatlar kelib chiqsa, qilmishni shu modda bo'yicha kvalifikatsiya qilib bo'lmaydimi, degan tabiiy savol tug'iladi. Fikrimizcha, ushbu muammoni hal etish hamda qonunning aniqligi hamda to'g'ri qo'llanishini ta'minlash uchun JK 116-moddasi nomidagi "vazifalarini" jumlasini "vazifasini" deb o'zgartirish maqsadga muvofiq.

Kasb yuzasidan vazifalarini bajarmaslik jinoyatining ijtimoiy xavfliligi aybdorning kasbiga, unga yuklatilgan kasb majburiyatlariga nisbatan mas'uliyatsizlik, ehtiyotsizlik bilan yondashishi natijasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga putur yetishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi JKda kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik uchun javobgarlikning kuchaytirilganligi shu bilan belgilanadiki, kasb yuzasidan muayyan vazifasini bajarayotgan shaxs umumiy qoidalar bilan bir qatorda kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan maxsus xavfsizlik qoidalariga ham rioya etishi lozim.

Professor M.X. Rustamboyevning yozishi-cha, "Kasb vazifalarini bajarmaganlik – shaxsning kasb majburiyatlari doirasiga ki-

ruvchi harakatlarni qilishi lozim va mumkin bo'lgan hollardagi harakatsizligidir. Kasb yuzasidan vazifalarini lozim darajada bajarmaganlik deganda, shaxsning kasb majburiyatlari doirasidagi harakatlarini uning ishi, kasbiy faoliyati talab etganidek bajarmaganligi tushuniladi" [13].

F. Tohirov esa bu borada shunday deydi: "Shaxsning kasb vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi nafaqat ayrim harakatsizlik yoki harakatda, balki uzoq muddatli faoliyatsizlikda yoki lozim darajada bajarilmagan bir qator harakatlarda ham namoyon bo'lishi mumkin" [15].

M. Qodirov, M.S. Vosiqova, B.A. Ahmedov, B.A. Blinder, S.G. Zakutskiy, M.G. Ikramova, F.I. Muxitdinovlar [16] tomonidan ham yuqoridagi mualliflarning fikriga o'xshash mulohazalar bildirib o'tilgan.

E.O. Turg'unboyevning ta'kidlashicha, "Kasb vazifasini bajarmaslik – bu shaxsning kasb majburiyatlari doirasiga kiradigan amallarni bajarishi shart bo'lgan holatlarda bajarmasligidir. Kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslik shaxsning bajarishi shart bo'lgan majburiyatlarni rasmiy ijro etib, to'liq bajarmaganligi bilan izohlanadi" [17].

Yuridik ensiklopediyalarda mazkur jinoyat tushunchasini yoritishda asosan bemorga yordam ko'rsatmaslik, ya'ni qonun yoki maxsus qoidalarga ko'ra bemorga yordam ko'rsatishi shart bo'lgan shaxsning uzrli sababsiz yordam ko'rsatmaganligi badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lgandagi holat izohlangan [18].

Bu borada Y.K. Senekosova "professional malakasizlik" va "insofsizlik" kabi tushunchalarni (tibbiyot xodimlariga nisbatan) kiritishni taklif qiladi. Muallifning fikricha, "professional malakasizlik" deganda, tibbiyot xodimining kasbiy tayyorgarlik darajasining soha bo'yicha xodimlar uchun belgilangan talablar va malakaga mos emasligi tushuniladi. Insofsizlik deganda, qonunchilik talablari, mansab yo'riqnomasi, tibbiyot fanining umume'tirof etilgan qoidalari, tibbiy etika va

deontologiya talablariga rasmiyatchilik sifatida yondashgan holda, ularga amal qilmaslik oqibatida kasbiy (mansab) majburiyatlarini bajarmaslik tushuniladi [19].

Ta'kidlash lozimki, "kasb yuzasidan vazifasini lozim darajada bajarmaslik" atamasi jinoyat huquqi fani uchun yangi tushuncha emas. 1926-yilda G. Dembo uni o'z monografiyasida keltirib o'tgan [20]. Bu atama M.D. Shargorodskiy [21], L.L. Kruglikov [22], E.F. Pobegaylo [23], A.I. Korobeev [24] kabi olimlarning ilmiy asarlarida ham tilga olingan. Masalan, L.L. Kruglikov aybdorning kasb vazifalarini lozim darajada bajarmasligi deganda, shaxsning unga kasb yuzasidan vazifalarini bajarayotganda qo'yiladigan rasmiy talablar, qonun-qoidalarga to'liq yoki qisman muvofiq kelmaydigan xatti-harakatlarini tushunadi [24], degan.

E.F. Pobegayloning fikricha, kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bu – talablar, ko'rsatmalar va qoidalarga to'la muvofiq bo'lmagan qilmishlar sodir etilishi natijasida odam o'limiga sabab bo'lishdir [23].

Yuqorida nomlari keltirilgan mualliflar asarlarining tahlili "kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik" tushunchasi ikki xil ma'noda:

1) ehtiyotsizlik natijasida sodir etiladigan jinoyatlar subyektiv tomonining xususiyati;

2) bunday jinoyatlar majmuyi sifatida ishlatilishini ko'rsatadi.

A.G. Blinov esa "kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslik" atamasini birinchi ma'noda tushunadi va shaxs kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaganligi tufayli ehtiyotsizlik natijasida sodir etilgan jinoyat uchun alohida javobgarlikni nazarda tutuvchi moddani jinoyat qonuniga kiritishni taklif qiladi [24]. Shunga o'xshash fikrni bolgariyalik olimlar K.Lyutov [25] va N. Manchev [26] ham ilgari suradilar. Ularning fikricha, kasb yuzasidan vazifalarini lozim darajada bajarmaslik ehtiyotsizlik natijasida jinoyat sodir etishning bir turiki, unda ehtiyotsizlik tegishli mutaxassislar tomonidan muayyan

harakatlar sodir etilganda namoyon bo'ladi. Bunda kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog'liq bo'lgan ehtiyotsizlik odatdagi ehtiyotsizlikdan harakatning xususiyatiga qarab ajratiladi. "Jinoyatning obyektiv belgilarini tahlil qilish usuligina mazkur jinoyat tarkibini o'rganishning to'g'ri usuli bo'lishi mumkin, subyektiv tomon esa jinoyat tarkibi obyektiv tomonining odamlar ongidagi in'ikosi xolos" [27]. Bizning nazarimizda ham ushbu jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi qilmishning subyektiv tomoni bilan bog'liq bo'lib, kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslik ehtiyotsizlik natijasida (o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik tufayli) sodir etiladigan jinoyat bo'lganligi bois JK normasi qismlarini shakllantirish va jinoyat kvalifikatsiyasida 116-moddasi amaliy ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

V.A. Glushkov bu xususda mulohaza yuritgan ekan, "Kasbiy faoliyat sohasidagi jinoyat deganda, xodimning xizmat yoki kasb vazifalarini lozim darajada bajarmasligi oqibatida sodir etadigan, fuqarolarning turli sohalardagi manfaatlari, aholiga muayyan turdagi xizmatlar ko'rsatish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar, ayrim fuqarolarning sog'lig'iga ziyon yetkazgan, qasddan yoki ehtiyotsizlik natijasida sodir etiladigan, g'ayriqonuniy, ijtimoiy xavfli qilmish tushunilishi lozim" [28], deydi.

Ta'kidlash o'rinliki, adabiyotlarda kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslikning aynan tibbiyot xodimlari tomonidan sodir etilishining turli jihatlari atroflicha o'rganilgan [29]. Bu, avvalo, sud-tergov amaliyotida ham ushbu jinoyat, ayniqsa, tibbiyot xodimlari tomonidan ko'p sodir etilishi bilan izohlanadi. Chunonchi, JK 116-moddasi bo'yicha respublika sudlarida ko'rilgan 200 ta jinoyat ishi o'rganilganda, ushbu jinoyat asosan tibbiyot xodimlari (94 %) tomonidan sodir etilganligi aniqlangan [9]. Shu bilan bir qatorda, ushbu jinoyat ishlari materiallari tahlili mazkur jinoyat ko'proq oilaviy poliklinika mudiri, bosh shifokor, bosh shifokor muvoini, jonlantirish bo'limi mudiri, tug'ruq kom-

pleksi mudiri, akusher-ginekologiya bo'limi mudiri, akusher-ginekolog, jonlantirish bo'limi shifokori, anesteziolog-reanimatolog, reanimatolog, xususiy shifoxona ginekolog shifokori, umumiy amaliyot shifokori, navbatchi shifokor, jarrohlik bo'limi jarrohi tomonidan sodir etilganligini ko'rsatmoqda.

Ushbu jinoyatning aynan tibbiyot xodimlari tomonidan sodir etilishi o'ziga xos jihatlari bilan tavsiflanadi, bu, avvalo, tibbiyot xodimining kasb vazifalarining alohida xususiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Aynan shu sababli tibbiyot xodimlarining kasb vazifalarini lozim darajada bajarmasligiga doir ishlarni tahlil qilganda, kasbiga nisbatan beparvolik bilan munosabatda bo'lish tufayli shikast yetkazishni tashxis qo'yishdagi qiyinchiliklar, lozim darajada davolash imkoniyatlarining yo'qligi kabi sabablardan farqlash muhimdir. Tibbiyot xodimi kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaganligi tufayli ehtiyotsizlik natijasida odam o'limi yuz bergani gumon qilinganda, tergov va sud-tibbiyot ekspertizasi natijalariga muvofiq, hal qiladigan vazifa inson o'limi yoki badanga og'ir shikast yetkazish tibbiyot xodimining harakati yoki harakatsizligi bilan bevosita aloqadorligini aniqlashdan iborat [30].

“Kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslik” tushunchasiga Y.D. Sergeyev va S.V. Erofeyevning monografiyasida to'liq ta'rif berilgan. Ular tibbiyot sohasida kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslik deganda, tibbiyot xodimi kasb vazifalarini buzib, ayrim fuqarolar sog'lig'iga jiddiy ziyon yetkazgan yoki ularning hayotiga xavf tug'dirgan qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlik natijasida sodir etishini [31] tushunadilar.

Tibbiyot sohasida kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslik tushunchasiga berilgan mazkur ta'rif ushbu jinoyat tarkibining mazmuniga berilgan ta'riflarga ayniqsa yaqindir. Yuqoridagi ta'rifga ko'ra, mualliflar mazkur jinoyatlar qasddan ham, ehtiyotsizlik natijasida ham sodir etilishi mumkin, deb hisoblay-

dilar. Tibbiyot xodimlari bemorlarning hayoti va sog'lig'iga qarshi sodir etadigan jinoyatlariga doir ishlar bo'yicha tergov va sud amaliyoti esa bunday qilmishlar ehtiyotsizlik natijasida sodir etilishini ko'rsatadi [9].

Masalan, 2017-yil 16-fevralda jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent viloyati Qibray tumani sudida sudlanuvchi M.ga nisbatan JK 116-moddasining 3-qismi bo'yicha jinoyat ishi ko'rib chiqilgan. Unga ko'ra, sudlanuvchi M. Toshkent viloyati Qibray tumani Tibbiyot birlashmasi bosh shifokori o'rinbosari va qo'shimcha jarroh shifokor lavozimida ishlab kelib, 2016-yil 30-aprel kuni taxminan soat 23:50 da Toshkent viloyati Qibray tumani Tibbiyot birlashmasi jonlantirish bo'limiga yo'l transport hodisasi natijasida og'ir darajadagi tan jarohatlari bilan olib kelingan bemor Z.ni qabul qilib, uni operatsiya qilish jarayonida kasbiga nisbatan beparvolik bilan munosabatda bo'lgani natijasida bemordagi ichki qon ketishini aniqlamagan hamda o'z kasb vazifalarini lozim darajada bajarmay, operatsiya davomida bemorni qon va qon preparatlari bilan ta'minlash choralari ko'rmaganligi natijasida bemorning qon bosimi tushib, sog'lig'i va hayoti uchun ortga qaytmas jarayonlar ketma-ket shakllanib, bemor jonlantirish bo'limida vafot etgan [32]. Mazkur holatda ham sudlanuvchining qilmish va oqibatga nisbatan ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'lganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Muayyan soha vakillarining o'z kasbi bilan bog'liq holdagi jinoiy javobgarligining xususiyatlari ularning subyekt sifatidagi alohida maqomi bilan bog'liq va ular kasbiy faoliyatining ijtimoiy mohiyati bilan belgilanadi. Muayyan soha xodimlari kasbiy faoliyatining ijtimoiy mazmun va mohiyati fuqarolarga ma'lum bir xizmat turlarini ko'rsatish, ularni boshqarish va uning ko'rsatilishi ustidan nazoratni amalga oshirishdan iboratdir. Muayyan soha xodimlari faoliyatining asosiy maqsadi faoliyat turidan kelib chiqqan holda, inson hayotini saqlash, uning sog'lig'i holati-

ni yaxshilash, shaxs daxlsizligi va xavfsizligini ta'minlash kabilardan iborat ekan, kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslikda ifodalanuvchi qilmishning jinoiyligi shaxs hayoti, sog'lig'i, daxlsizligiga ziyon yetkazish bilan bog'liq ekanligi tabiiy bir holdir.

Xulosalar

Yuqoridagi olimlarning fikrlari hamda amaliyot materiallarini tahlil qilish asosida xodimning kasb vazifalarini lozim darajada bajarmasligi muammosini har tomonlama tartibga solish va kelgusi faoliyatda bunday xatolarga yo'l qo'yilishining oldini olish uchun Jinoyat huquqi nazariyasini rivojlantirish va Jinoyat qonunini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Kasb – ish faoliyatning ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab qiladigan biror turi, sohasi. Kasb vazifalari deganda shaxsning ish faoliyatidan, kasbidan kelib chiquvchi amalga oshirilishi, hal qilinishi lozim bo'lgan vazifa tushunilishi mumkin. "Kasb" hamda "mansab" tushunchalari o'zaro bir-biridan farq qiladi. Mansab – amal, mas'ul vazifa, lavozim bo'lib, mansabga ega bo'lgan shaxs mansabdor shaxs deb yuritiladi. Mansabdor shaxsning kasb yuzasidan o'z vazifasini bajarmasligi JK 116-moddasi ta'sir doirasiga tushmaydi, balki JK Maxsus qismining mansabdorlik jinoyatlariga oid moddalari bilan kvalifikatsiya qilinadi.

2. Jinoyat kodeksining 116-moddasi dispozitsiyasi blanket dispozitsiya bo'lib, qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga murojaat qilish lozim.

3. JK 116-moddasi nomini tahlil qilish unda "kasb vazifalari" to'g'risida so'z boriishi hamda qilmishni jinoyat deb baholash uchun kasb vazifalari buzilishi talab qilinishi to'g'risida xulosaga kelish mumkin. Holbuki, kasb vazifalari deganda, ikki yoki undan ortiq vazifalarni tushunish mumkinligini inobatga olsak, basharti aybdor bitta kasb vazifasini buzsa va buning natijasida tegishli oqibatlar kelib chiqsa, qilmishni shu modda bo'yicha kvalifikatsiya qilib bo'lmaydimi, degan tabiiy

savol tug'iladi. Ushbu muammoni hal etish hamda qonunning aniqligini ta'minlash maqsadida JK 116-moddasi nomidagi "vazifalarini" jumlasini "vazifasini" deb o'zgartirish maqsadga muvofiq.

4. JK 116-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasi tuzilishida ijtimoiy xavfliligi turlicha bo'lgan badanga o'rtacha og'ir va og'ir shikast yetkazish kabi oqibatlar birlashtirilgan. Shuni inobatga olib, JK 116-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasidagi jinoiy oqibatlar sifatida badanga o'rtacha og'ir va og'ir shikast yetkazish ko'rinishidagi oqibatlarni ajratish hamda og'ir shikast ikkinchi qism qilib kiritilishi maqsadga muvofiq.

5. JK 116-moddasining quyidagi yangi tahriri taklif etildi:

"116-modda. Kasb yuzasidan vazifasini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaslik

Shaxsning kasbiga nisbatan beparvoligi yoki insofsizlik bilan munosabatda bo'lishi tufayli kasb vazifasini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki yuz soatdan ikki yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha qilmish:

a) badanga og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa;

b) shaxsning kasb yuzasidan vazifasini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida boshqa shaxsga OIV kasalligi / OITSni yuqtirishi, –

- bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki ikki yuz soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha qilmish ehtiyotsizlik natijasida:

a) odam o'limiga;

b) shaxsning kasb yuzasidan o'z vazifasini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida ikki yoki undan ortiq shaxsga OIV kasalligi/OITSni yuqtirishi;

d) boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa,

– bir yildan to'rt yilgacha ozodlikni cheklash yoki to'rt yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish ehtiyotsizlik natijasida odamlar o'limiga sabab bo'lsa,

– to'rt yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi".

6. JKni yangi 116¹-modda bilan to'ldirish taklif etildi:

"116¹-modda. Tibbiyot xodimlarining kasb yuzasidan vazifalarini lozim darajada bajarmasligi

Qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq, bemorga yordam ko'rsatishi shart bo'lgan shaxsning uzrli sababsiz shunday yordam ko'rsatmaganligi yoki lozim darajada yordam ko'rsatmaganligi badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki ikki yuz soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha qilmish:

a) badanga og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa;

b) shaxsning kasb yuzasidan o'z vazifasini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida boshqa shaxsga OIV kasalligi/OITSni yuqtirishi, –bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha qilmish ehtiyotsizlik natijasida:

a) odam o'limiga;

b) shaxsning kasb yuzasidan o'z vazifasini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida ikki yoki undan ortiq shaxsga OIV kasalligi/OITSni yuqtirishi;

d) boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, –

ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish ehtiyotsizlik natijasida odamlar o'limiga sabab bo'lsa, –

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi".

Yuqorida bildirilgan takliflarning amalga oshirilishi tibbiyot xodimlari tomonidan vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining kelib chiqish sabablarini kamaytiradi va jinoyatchilikning oldini olish imkonini beradi.

REFERENCES

1. World health organization. Available at: <https://www.who.int/ru/>
2. Vavilon. Available at: <https://vavilon.ru/statistika-vrachebnyh-oshibok/#mirovaya-statistika>
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2022 yil-yil ma'lumoti [Information of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan for 2022].
4. Pavlov V.G. Subyekt prestupleniya. [The subject of the crime]. St. Petersburg, 2001. pp. 197–209.
5. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir [An educated generation is a guarantee

of a great future, an entrepreneurial people is a guarantee of a prosperous life, and friendly cooperation is a guarantee of development]. A speech at the solemn ceremony dedicated to the 26th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Available at: www.uza.uz/

6. Jinoyat ishlari bo'yicha Norin tuman sudining 1-81-2009 yil-yil sonli arxiv materallari [Archive materials of the Norin District Court on criminal cases dated 1-81-2009].

7. Jinoyat ishlari bo'yicha Kosonsoy tuman sudining 1-38-2009 yil-yil sonli arxiv materallari [Archive materials of the Kosonsoy district court on criminal cases dated 1-38-2009].

8. Jinoyat ishlari bo'yicha To'raqo'rg'on tuman sudining 1-263-2009 yil-yil sonli arxiv materallari [Archive materials of Torakorgan district court on criminal cases No. 1-263-2009].

9. Respublika bo'yicha to'plangan 200 ta jinoyat ishi materiallari tahlili [Analysis of 200 criminal case materials collected across the country].

10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi - Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. 1996.

11. O'zbek tilining izohli lug'ati, [National encyclopedia of Uzbekistan]. Tashkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi publ., 2008, vol 1, p. 328.

12. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh [Commentary on the Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Responsible editor: Ph.D., prof. A.A.Azizxo'jayev. Tashkent, O'zbekiston publ., 2008, p. 194.

13. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Special part. Volume 3: Offenses against the person. Crimes against peace and security. Tashkent, ILM ZIYO Publ., 2011, p. 127.

14. Tahirov F. Shaxsga qarshi jinoyatlar va ularning yuridik tahlili. [Crimes against the person and their legal analysis]. Resp. H. Boboyev, M. Rustamboyev. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ, 2001, p. 83.

15. Kadirov M.M. Ugolovnoye pravo Respubliki Uzbekistan. Osobennaya chast. [Criminal law of the Republic of Uzbekistan. Special part]. Tashkent, Adolat Publ., 1997, pp. 63-64.;

16. Turg'unboyev E.O. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik va xavf ostida qoldirish jinoyatining farq qiluvchi belgilari. [Distinctive signs of the crime of failure to properly perform one's duties in connection with the profession and endangerment]. Yosh olimlarning ilmiy maqolalar to'plami – A collection of scientific articles by young scientists. 2010, no.1, p. 113.

17. O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi [Legal encyclopedia of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat publ, 2010, p. 239.

18. Senekosova Ye.K. Professionalnaya nekompetentnost i nedobrosovestnost pri okazanii meditsinskoy pomoshhi: kriminologicheskiye i ugolovno-pravovyye aspekty: [Professional incompetence and dishonesty in the provision of medical care: criminological and criminal law aspects]. PhD thesis. Omsk, 2018, p. 10.

19. Dembo G. Otvetstvennost vracha v yego professionalnoy deyatel'nosti [Responsibility of a doctor in his professional activity]. Moscow, 1926, p. 67.

20. Shargorodskiy M.D. Izbrannyye trudy. [Selected works]. Moscow, jurid. center plyus publ., 2004, p. 684.

21. Kommentarii k Ugolovnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii (postateyny) [Comments on the Criminal Code of the Russian Federation (article by article)]. Moscow, 2005, p. 478.

22. Pobegaylo E.F., Milyukov S.F., Blinnikov V.A. Ensiklopediya ugolovnogo prava. [Encyclopedia of Criminal Law]. Moscow, 2007, p. 28.

23. Korobeev A.I. Neokazaniye pomoshchi bolnomu [Failure to help the patient]. Criminological Journal of the Baikal State University of Economics and Law. 2007, no. 1-2, pp. 35-36.

24. Blinov A.G. Ugolovno-pravovaya okhrana prav patsyenta [Criminal-legal protection of the rights of a patient]. Saratov, 2004, pp. 93-94.

25. Lyutov K. Professional neprednaznivost v nakazatel'nogo prava [Professional unpremeditated in penal law]. Sofiya, 1958, p. 4.

26. Manchev N. Prestupleniya protiv jivota i zdraveto na cheloveka. [Crimes against the stomach and healthy per person]. Sofiya, Science and Art, 1963, p. 235.
27. Khimchenko S.A. Prestupleniya v oblasti osushestvleniya professionalnoy vrachebnoy deyatelnosti: [Crimes in the field of professional medical activity]. PhD thesis. Kiev, 1990, p. 18.
28. Glushkov V.A. Problema ugolovnoy otvetstvennosti za obshestvenno opasnyye deyaniya v sfere meditsinskogo obsludjivaniya. [The problem of criminal liability for socially dangerous acts in the field of medical care]. PhD thesis. Kiev, 1990, p. 39.
29. Nikitina I.O. Istoricheskiy opyt v borbe s prestupleniyami, sovershayemyimi meditsinskimi rabotnikami pri vypolnenii professionalnyx obyazannostey [Historical experience in the fight against crimes committed by medical professionals in the performance of professional duties]. Moscow, 2006, no.7, pp. 59-60.;
30. Bondarenko D.V. K voprosu o yuridicheskoy otvetstvennosti meditsinskix rabotnikov [To the question of the legal responsibility of medical workers]. Medical law, 2006, no. 4.
31. Sergeev Yu.D., Yerofeev S.V. Neblagopriyatnyy ishod okazaniya meditsinskoy pomoshhi. [Poor medical outcome]. Moscow, 2001, p. 12.
32. Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent viloyati Qibray tumani sudining 2017-yil arxiv materallari. [2017 archival materials of the Qibray district court of Tashkent region on criminal cases].
33. Frolova I.I. Pravovye problemy okazaniya platnykh meditsinskix uslug i problemy sderjivaniya korrupsii v sfere zdravooxraneniya (opyt sotsiologicheskogo issledovaniya) [Legal Problems of Provision of Paid Medical Services and Problems of Curbing Corruption in the Sphere of Healthcare (Sociological Research Experience)]. Moscow, 2006, no. 9, pp. 55-56.;

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.3./EXB08803>
UDC: 343.1(045)(575.1)

ISH YURITISHNI RAD ETISH YOKI TUGATISHDA SHAXSNING VAFOT ETGANLIGI ASOSI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakulteti doktoranti, kapitan
e-mail: jasurbekataniyazov91@gmail.com
ORCID: 0000-0003-39-53-3800

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsning vafoti munosabati bilan ish yuritishni rad etish yoki tugatish bilan bog'liq protsessual muammolar va mazkur masalalarning huquqiy tartibga solish jihatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada jinoyat ishi doirasida ayblanuvchi tariqasida jalb etilishi lozim bo'lgan shaxsning vafot etgan vaqtida protsessual maqomi qonunchilikda saqlanganligi, biroq tergovga qadar tekshiruv vaqtida va shaxsning gumon qilinuvchi sifatidagi maqomi bilan bog'liq protsessual davrda vafot etishi yuzasidan ishni hal etishning keyingi mexanizmi mavjud emasligi borasidagi muammolar va mavzuga oid huquqiy kolliziya, Fuqarolik sudlari tomonidan shaxslarni vafot etgan deb topishning huquqiy oqibatlari jinoyat-protsessual qonunchilikka tatbiq etilishi yuzasidan mavjud huquqiy bo'shliq ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganilib, mazkur tahlillar yuzasidan qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tegishli qonun va qonunosti hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Maqolada shaxslarning vafoti bilan bog'liq huquqiy oqibatlarining qonunchilikda aks etish holati va tahlili tizimli ravishda keltirilgan. Mavzuni yoritishda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo'llangan. Tadqiqot ishida ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar va tergov hamda sud amaliyoti tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: vafot etganlik, jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs, jinoyat ishini tugatish, rad etish, gumon qilinuvchining vafoti, yaqin qarindosh.

ОТКАЗ ИЛИ ПРЕКРАЩЕНИЕ ДЕЛОПРОИЗВОДСТВА В СВЯЗИ СО СМЕРТЬЮ ЛИЦА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Атаниязов Жасурбек Курбанбаевич,

докторант факультета послевузовского образования
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан, капитан

Аннотация. В этой статье рассматриваются процессуальные проблемы, связанные с отказом или прекращением производства по делу в связи со смертью лица, а также аспекты правового регулирования этих вопросов. Также в статье рассматриваются проблемы, касающиеся того, что в законодательстве процессуальный статус лица, подлежащего привлечению в качестве обвиняемого в рамках уголовного дела, на момент его смерти сохранялся, но не существовало дальнейшего механизма разрешения дела о его смерти в ходе досудебного расследования, процессуального периода, связанного со статусом лица в качестве подозреваемого, а также рассматривается предмет правовой

коллизии. Существующий правовой пробел при применении гражданскими судами уголовно-процессуального законодательства по правовым последствиям признания лиц умершими изучен как теоретически, так и практически, по результатам анализа разработаны предложения по внесению изменений и дополнений в соответствующие законодательные и подзаконные акты по совершенствованию законодательства. Также в статье систематически приводится состояние и анализ отражения в законодательстве правовых последствий, связанных со смертью физических лиц. В исследовании использовались такие методы, как анализ, синтез, индукция, дедукция, сравнительно-правовой анализ. В исследовательской работе проанализирован передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды, следственная и судебная практика.

Ключевые слова: смерть, лицо, совершившее преступное деяние, прекращение уголовного дела, отказ, смерть подозреваемого, близкий родственник.

THE REASON FOR THE DEATH OF A PERSON IN CASE OF REFUSAL OR TERMINATION OF OFFICE WORK: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbaevich⁶

University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Captain,
Doctoral student of the Faculty of Postgraduate Education

Abstract. This article discusses the procedural problems associated with the refusal or termination of proceedings in connection with the death of a person, as well as aspects of the legal regulation of these issues. The article also discusses the problems associated with the fact that the procedural status of the person to be brought as an accused in a criminal case was preserved in the legislation at the time of his death, but there was no further mechanism for resolving the case of his death during the pre-trial investigation and during the procedural period associated with the status of the person as a suspect and the subject of a legal conflict. The existing legal gap in the application by civil courts to the Criminal Procedure Legislation of the legal consequences of recognizing persons as deceased has been studied both theoretically and practically. According to this analysis, proposals have been developed for amendments and additions to the relevant legislative and by-laws to improve legislation. The article also systematically presents the state and analysis of the reflection in the legislation of the legal consequences associated with the deaths of individuals. The study used such methods as analysis, synthesis, induction, deduction, and comparative legal analysis. The research work analyzes advanced foreign experience, scientific and theoretical views, and investigative and judicial practice.

Keywords: death, a person who committed a criminal act, termination of a criminal case, refusal, death of a suspect, a close relative.

Kirish

Dunyoda jinoiy jazolarni liberallashtirish, aybsiz shaxslarni javobgarlikka tortmaslik va javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, inson sha'ni va qadr-qimmatini asrashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlarda shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xususiyy ayblov va dispozitivlik asosidagi jinoyat ishlarida

shaxslarni javobgarlikka tortmasdan turib tarbiyalash, jinoyat yo'liga adashib kirib qolgan shaxslarni tarbiyalashning insonparvarlik prinsiplari doirasidagi huquqiy normalarni joriy etish va bu borada tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 1-noyabrdagi Andijon viloyati saylovchilari vakillari bilan uchrashuvdagi

nutqida aytib o'tganidek, "Yurtimizda barpo etilayotgan huquqiy-demokratik davlatda adolatsizlik bo'lishiga hech qachon yo'l qo'ymaymiz. Qonun va adolat himoyasi hokimiyatning barcha bo'g'inlari, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari, ayniqsa, huquqni muhofaza qilish idoralarining birinchi darajali vazifasi bo'lib, ayni paytda butun jamiyatimizning kuch va imkoniyatlarini shu yo'lda safarbar etish shart, deb hisoblaymiz" [1, 22-b].

Darhaqiqat, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, qonun va adolat himoyasi davlat va jamiyatning samarali faoliyat olib borishida asosiy o'rin egallaydi hamda mazkur vazifa bevosita davlat nazoratida bo'lishi juda muhimdir.

Material va metodlar

Shaxslarning jinoiy qilmishlari bo'yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatishda ularning vafoti bilan bog'liq hollarda jinoyat-protsessual muammolar mavjudligini kuza-tishimiz mumkin.

Jumladan, amaldagi JPKning 84-moddasi birinchi qismi 3-bandiga muvofiq, basharti ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa, uning aybliligi to'g'risidagi masala hal etilmay jinoyat ishi tugatilishi belgilangan. Amaliyotda mazkur holatlar ko'plab uchrashi sababli bu boradagi muammolar ham o'ziga xoslik kasb etmoqda. Mazkur maqolada ish yuritishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan. Mavzuni yoritishda qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasi IIV Tergov Departamenti va uning quyi bo'linmalari tomonidan 2017–2021-yillar davomida jami 1 829 ta jinoyat ishi ayblanuvchilarning vafot etganligi sababli tugatilgan [2]. Ya'ni sudlarda 269 ta jinoyat ishi va ularda jami 343 nafar vafot etgan sudlanuvchilarga nisbatan jinoyat ishlarini yuritish to'xtatilgan

[3]. Biroq amaliyotda gumon qilinuvchi yoki tergovga qadar tekshiruv davomida vafot etgan shaxslar bilan bog'liq holatlar yanada katta raqamlarni tashkil etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mazkur masalalarda qonunchilikni takomillashtirish zaruratini taqozo etmoqda.

S. Mahmudov [4, 100-115-b] va B. Murodovlarning [5, 82-b] ta'kidlashicha, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 3-bandida ayblanuvchi va sudlanuvchidan tashqari gumon qilinuvchining ham qayd etilmaganligi amaliyotda turli tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda. Kodeksning 84-moddasi birinchi qismi 3-bandida "ayblanuvchi" va "sudlanuvchi" bilan bir qatorda "gumon qilinuvchi" ham qayd etilishi amaliyotdagi muammolarni bartaraf etadi.

Yuqoridagi mualliflarning fikrlariga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, haqiqatan ham, amaliyotdagi holatlar bevosita vaziyatdan kelib chiqib qaror qabul qilishni talab etganligi bois ko'p hollarda jinoyat-protsessual qonunchilikka mutanosib bo'lavermasligi Jinoyat-protsessual kodeksning qonuniylik prinsipiga ziddir. Biroq yuqoridagi olimlar o'z fikrlarida jinoyat ishi qo'zg'atilgach, ish yuritish davomida gumon qilinuvchining vafot etganligi holatini nazarda tutmoqdalar xolos. Ammo tergovga qadar tekshiruv davomida ham jinoyat subyekti sifatida jalb etilishi lozim bo'lgan shaxsning o'z joniga qasd qilganligi yoxud boshqa sabablarga ko'ra (yo'l-transport hodisasi vaqtida va h.k.) vafot etgan vaziyatlarda tergovga qadar tekshiruv yuzasidan qaror qabul qilish lozim bo'lganda, hech qanday maqomga ega bo'lmagan shaxsga nisbatan jinoyat ishini ayblilik masalasini hal etmay turib tugatish uchun qaror qabul qilinishi, albatta, jinoyat-protsessual qonunchilikka zid hisoblanadi.

Bu borada B. Murodov ham 84-moddaning birinchi qismi 3-bandida nafaqat "gumon qilinuvchi", balki "ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs"ni ham aks ettirish lozimligini ta'kidlagan [5, 82-b].

Albatta, tergovga qadar tekshiruv – protsessual nuqtayi nazardan jinoyat ishi qo'zg'atilishi yoki ish qo'zg'atishni rad etish bilan yakunlanuvchi bosqich bo'lganligi sababli bunda shaxsni biron-bir maqomda e'tirof etishning imkoni yo'q. Shunday bo'lsa-da, jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlarini davom ettirish ham surishtiruv-tergov yuzasidan maqsadga muvofiq emas. Basharti tergovga qadar tekshiruv vaqtida kelgusida ayblanuvchi tariqasida jalb etilishi lozim bo'lgan shaxs vafot etgan taqdirda, uning mazkur maqomini JPKning 84-moddasi birinchi qismi 3-bandida mustahkamlash lozim. Bunda mazkur shaxsning aybi to'plangan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bilan to'liq o'z isbotini topishi ham muhim sanaladi, chunki marhumning qarindoshlari tomonidan ish rad etilishi yoki tugatilishi ustidan shikoyat qilish huquqi saqlanganligi bilan bir qatorda, surishtiruvchi va tergovchilar uchun ishni osongina hal etish borasida omil sifatida xizmat qilmasligi kerak.

Shaxsning vafoti munosabati bilan ish yuritishni rad etish yoki tugatishni huquqiy-protsessual tartibga soluvchi normalar o'rtasida kollizion tafovut ham kuzaatiladi. Chunonchi, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 3-bandida faqatgina ayblanuvchi va sudlanuvchi vafot etgan taqdirdagina ishni ayblilik masalasini hal etmay turib tugatish mumkinligi belgilab qo'yilgan. JPKning 333-moddasida, 84-moddasi birinchi qismining 1, 3–8-bandlarida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqarishi lozimligi belgilangan. Mantiqiy nuqtayi nazardan, yuqorida keltirib o'tganimizdek, tergovga qadar tekshiruv vaqtida mazkur vafot etgan shaxsning biron maqomi belgilanmaydi, buning imkoni ham yo'q. Ya'ni JPK talablarida shaxsni

faqatgina jinoyat ishi doirasidagina gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sifatida ishga jalb etish mumkin. Tergovga qadar tekshiruv vaqtida esa uning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligi va kelgusida jinoyat ishi qo'zg'atilganidan so'ng ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etilishini mantiqan anglasak-da, ushbu shaxsga hech bir maqomda bo'lmaganligi sababli protsessual choralar ko'rilmaydi.

JPKning 84-moddasi birinchi qismi 3-bandida faqatgina ayblanuvchi va sudlanuvchi maqomidagi shaxsning vafot etganligi holati ishni tugatishga asos sifatida belgilab qo'yilgan. Tergovga qadar tekshiruv natijasi bo'yicha esa bunday shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etishning imkoni yo'q, qolaversa, JPKning 333-moddasida jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish borasidagi holatlar tergovga qadar tekshiruv natijasi uchun nazarda tutilgan.

F.Y. Vasilyev o'z tadqiqotlarida Rossiya qonunchiligi nuqtayi nazaridan reabilitatsiya etilmaydigan asoslarga ko'ra jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish borasida, gumon qilinuvchi va ayblanuvchining vafot etganligi holati boshqa norma bilan xuddi shunday shaxslarning tergovga qadar tekshiruv davomida vafoti aks ettirilishi lozimligi, bunda ularning yaqin qarindoshlari qaror va hujjatlar bilan tanishtirilishi va qaror ustidan shikoyat qilish huquqi tushuntirilishi zarurligi, biroq ularning qarordan roziligini olish shartli ravishda belgilanishi maqsadga nomuvofiqligini bildirgan [6, 15-16, 20-b].

F.Yu. Vasilyevning fikrlariga qo'shilish mumkin, chunonchi, yaqin qarindoshlarning bu boradagi huquqlari tushuntirilishi yetarlidir. Ularning roziligini olish shart qilib belgilanishi surishtiruv va tergov jarayonida qiyinchiliklar va protsessual muddatlarning cho'zilishiga olib keladi.

S. Peretokin esa bunday shaxslar vafot etganda, ularga nisbatan reabilitatsiya etilmaydigan asoslarga ko'ra ishni tugatish,

ularning yaqin qarindoshlari roziliklarini olishning majburiy tartibi belgilab qo'yilishi lozimligini bildirgan [7, 13, 24-b].

S. Peretokinning fikrlari biroz mu-nozarali, chunki bu jarayonda vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshlari uning "pok nomi"ni saqlab qolish motivida bo'lishi ta-biiy va bu sun'iy ravishda ishning cho'zilib ketishiga olib keladi. Vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshlariga shunday qaror us-tidan shikoyat qilish huquqi tushuntirilishi va keyingi harakatlar mexanizmi qonun-chilik bilan belgilanishi, albatta, kifoya qiladi.

Bu borada surishtiruv va tergov idorala-rida xizmat olib boruvchi respondentlar o'r-tasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra ham, ko'pchilik respondentlar gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida jalb etilishi lozim bo'lgan shaxs vafot etganda, ji-noyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin mazkur vafot etgan shaxs-ning yaqin qarindoshlaridan rozilik olish bo'yicha biror hujjat rasmiylashtirmaslikla-rini bildirib o'tdilar [8].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respub-likasi Fuqarolik kodeksining 36-moddasida "Agar fuqaroning qayerda turganligi haqi-da uning yashash joyida uch yil mobayni-da ma'lumot bo'lmasa, basharti u o'lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo'lgan deb taxmin qilish uchun asos bo'ladigan vaziyatlarda be-darak yo'qolgan bo'lib, uning qayerdaligi haqida olti oy mobaynida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasi-ga muvofiq, sud uni vafot etgan deb e'lon qilishi mumkin.

Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish bun-day fuqaroning huquq va burchlari borasi-da uning o'limi olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini vujudga keltiradi", deya belgilab qo'yilgan.

Mazkur fuqaroviy sud tomonidan shaxs-ni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risida-gi qarorning jinoyat-protsessual qonun-

chilikda aks etmaganligi bu borada huquqiy bo'shliq mavjudligidan dalolatdir. Huquq nazariyasiga ko'ra va amaliyot nuqtayi nazaridan "qonunda nimaiki taqiqlanmagan bo'lsa, ruxsat berilishi" [9, 193-b.] tamoyi-liga ko'ra, ish yuritilganligi bois fuqarolik va fuqarolik protsessual qonunchilikda-gi shaxsni vafot etgan deb e'lon qilish bi-lan bog'liq munosabatlar jinoyat-protses-sual qonunchiligiga tatbiq etilmoqda. Biroq shaxsning fuqaroviy sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi uning vafotining faktik ekanligini anglatmaydi va bu ba'zi shaxslarning osongina jinoiy ta'qibdan qu-tulib ketishiga imkon beradi.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonunining 10-mod-dasiga asosan, "Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Res-publikasining butun hududida ijro etilishi shart".

Ilg'or xorijiy davlatlarning protsessual qonunchiligida bu borada belgilangan qoi-dalarga nazar tashlasak, Rossiya Federat-siyasi JPKning 24-moddasi birinchi qismi 4-bandida gumon qilinuvchi va ayblanuv-chi vafot etgan taqdirda, unga nisbatan yuritilgan tergovga qadar tekshiruv va ji-noyat ishi hamda jinoiy ta'qib tugatilishi belgilangan bo'lib, istisno tariqasida va-fot etgan shaxsning reabilitatsiya qilinishi lozim bo'lgan hollarda bunday ishlarning tugatilishiga yo'l qo'yilmasligi mustahkam-lab qo'yilgan. Bunday murojaatlarni vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshlari, qa-rindoshlari yoki unga yaqin bo'lgan bosh-qa shaxslar berishi mumkinligi belgilangan [10].

Rossiya Federatsiyasi JPKning yuqorida nazarda tutilgan normasi faqatgina tergov-ga qadar tekshiruv, jinoiy ta'qib va jinoyat ishi tugatilishi borasida vakolat berishini inobatga olgan holda, sudlanuvchi maqomi

kiritilmagan, deb o'ylaymiz, biroq mazkur JPK sud ishi tugatilishining alohida asoslarini nazarda tutmaganligi bois bu bo'shliq tushu-narsizdir.

Ozarbayjon JPK 39-moddasi 39.1.5-ban-dida jinoyat qonunchiligida nazarda tutil-gan qilmishni sodir etgan shaxs mazkur qilmishni sodir etganidan so'ng vafot etsa, barcha jinoiy ta'qib, tergovga qadar tekshi-ruv va jinoyat ishi tugatilishi belgilangan. Bunda vafot etgan shaxsning reabilitatsiya qilinishi lozim bo'lgan hollarda qo'llanil-masligi istisno tariqasida belgilab qo'yilgan [11].

Ozarbayjon JPKda mazkur masala boshqa davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligiga qaraganda o'zgacharoq us-lubda hal etilgan, ya'ni unda shaxsning bi-ror maqomi ko'rsatilmaganligi, yanada aniqroq aytganda, jinoiy qilmish sodir et-gan shaxs vafot etsa, bunday ishlarni rad etishi yoki tugatilishi belgilangan. Albat-ta, normaning bunday sodda va tushunarli belgilanishi sud va tergov amaliyoti uchun ham qulayliklar beradi.

Ozarbayjon kabi Armaniston Respublikasi JPKning 35-moddasi birinchi qismi 10-ban-dida ham xuddi shu kabi vafot etgan shaxsning gumonlanuvchi yoki sudlanuvchi maqomi belgilanmagan. Biroq Armaniston Respub-likasi JPKda Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartibda shaxs vafot etgan deb topilgan hollarda, bu qoidaga rioya etilmasli-gi, ya'ni ish yuritilishi rad etilmasligi yoki tugatilmasligi, bunday hollarda faqat Bosh prokuror qaror qilishga vakolatli ekanligi bel-gilab qo'yilgan [12].

Gruziya JPKning 105-moddasi ikkinchi qismi "v" bandida [13], Yaponiya JPKning 339-moddasi 4-bandida [14], Birlashgan Arab Amirliklari JPKning 20-moddasi bi-rinchi qismida [15], Saudiya Arabistoni JPKning 22-moddasi birinchi qismi 4-ban-dida [16] faqatgina ayblanuvchi vafot etgan taqdirda, jinoiy ta'qib va jinoyat ishi tugati-lishi mumkinligi belgilangan.

Janubiy Koreya [17] va Estoniya [18]da bu borada o'zgacharoq tajriba shakllangan bo'lib, unga ko'ra, Koreya JPKning 328-mod-dasi birinchi qismi 2-bandida javobgarining vafot etishi va Estoniya JPKning 199-mod-dasi birinchi qismi 4-bandida gumonlanuv-chi va ayblanuvchining vafot etishi hamda har ikki davlatda yuridik shaxsning tugatili-shi jinoiy ta'qibning bekor qilinishiga sabab bo'ladi.

Mamlakatimizda bu boradagi masa-lalarning Janubiy Koreya, Ozarbayjon yoki Armaniston Respublikalari JPKlari-da belgilanganligi kabi javobgar yoki qil-mishni sodir etgan shaxsning vafoti mu-nosabati bilan yuritilgan tergovga qadar tekshiruv yoki jinoyat ishini tugatish borasida qoidalar milliy jinoyat-protses-sual qonunchiligimizda aks etishi quyi-dagi natijalarni berishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Birinchidan, bugungi kunda JPKning 84-moddasi birinchi qismi 3-bandida faqat-gina ayblanuvchi va sudlanuvchining vafot etganligi sababligina jinoyat ishini tugatish mumkin va bu o'z o'rnida jinoyat ishlariga qaraganda bir necha barobarga ko'p bo'lgan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bo'yicha qabul qilinishi mumkin bo'lgan qarorlarni qonuniy asos bilan ta'minlaydi. Ya'ni JPK-ning 84-moddasiga mazkur tergovga qadar tekshiruvda jinoiy javobgar bo'lishi lozim bo'lgan shaxsning vafot etganligi asosi-ning qo'shilishi shu bandga ko'ra jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish imkonini bera-di. Shu bilan birga, bugungi kunda JPKning 333-moddasi va 84-moddasi o'rtasida vu-judga kelayotgan mantiqiy-kollizion holatni ham bartaraf etadi.

Ikkinchidan, surishtiruv-tergov amali-yotiga muvofiq, odatda, jinoyat ishi qo'z-g'atilgach, javobgar bo'lishi lozim bo'lgan shaxslar mansabdor shaxslar tomonidan gumon qilinuvchi tariqasida ishga jalb etila-di va barcha dalillar bilan to'liq o'z tasdig'ini

topmaguniga qadar shaxsga ayb e'lon qilinmaydi. Bu davrda gumon qilinuvchining vafot etishi surishtiruvchi va tergovchilarga protsessual qiyinchiliklar tug'diradi. Bunday vaziyatdan chiqish uchun esa sun'iy ravishda protsessual qarorlar, ya'ni sirdan ayb e'lon qilish yoxud gumon qilinuvchiga nisbatan ishni tugatish haqidagi qaror asosida xatolarga yo'l qo'yilishi holatlarining oldi olinadi.

Uchinchidan, odatda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning vafoti uning yaqin qarindoshlari uchun qayg'uli kechayotgan bir vaqtda, unga nisbatan ayb e'lon qilish uchun dalillar to'plash maqsadida ushbu holatga qayta va qayta urg'u berilishi yoki yaqin qarindoshlardan tushuntirishlar olish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirtirilishi ularning davlat olib borayotgan jinoiy-huquqiy siyosatga bo'lgan ishonchi susayishi holatlarining oldi olinadi.

To'rtinchidan, JPKda mazkur ayblanuvchi va sudlanuvchi maqomidagi shaxslarning vafot etganligining fuqaroviy sudlar tomonidan e'lon qilinishi masalasi yoritilmaganligi sababli JPKda fuqaroviy sudlar tomonidan shaxsning vafot etgan deb topilgan qarorlarning tan olinishi yoki olinmaslining belgilanishi mazkur masaladagi huquqiy bo'shliqni bartaraf etadi.

Xulosalar

Muqaddam ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalarimizda JPKning 83–84-moddalari nomlanishi va ushbu normalarning mazkur munosabatlarga oid ijtimoiy munosabatlarni qamrab olishi bo'yicha muammolarga batafsil to'xtalib o'tganligimiz va ularning huquqiy yechimi yuzasidan o'z takliflarimizni berganligimiz bois quyida ish yuritishni istisno qiluvchi holatlarning yagona normada aks etishi nazarda tutilgan [19, 165-173-b., 20, 132-141-b., 21, 126-135-b].

Yuqoridagilarga xulosa qilib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq.

"84-modda. Jinoyatga oid ishlarni yuritishni rad etish va tugatish asoslari

Jinoyatga oid ishlar quyidagi hollarda rad etilishi yoki tugatilishi lozim, agar:

9) *jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa; shuningdek, Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartibda fuqarolik sudi tomonidan shaxs vafot etgan deb topilgan bo'lsa, jinoyat ishini tugatish prokurorning roziligi asosida amalga oshiriladi"*.

"463-modda. Ayblov hukmi chiqarish asoslari

Ikkinchi qismi 5-bandi, ya'ni:

Sud quyidagi hollarda jazodan ozod qilib, ayblov hukmini chiqaradi, bosharti:

5) *hukm chiqarish vaqtigacha sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa yoki Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartibda fuqarolik sudi tomonidan shaxs vafot etgan deb topilgan hollarda"*.

Yuqoridagi qonun hujjatlariga kiritilishi lozim deb topilgan o'zgartirishlar, avvalo, bu boradagi ishlarni huquqiy tartibga solishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, fuqarolarning ayb uchun javobgarlik bilan bir qatorda, insonparvarlik prinsipining qonunlar va fuqarolar ongiga yanada chuqur kirib borishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, tadqiqot davomida olib borilgan so'rov natijalariga ko'ra, 62 % surishtiruvchi, tergovchi, amaliyotchi va huquqshunoslardan iborat respondentlar JPKda tergovga qadar tekshiruv vaqtida ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs va jinoyat ishini tergov qilish vaqtida gumon qilinuvchining vafot etganligi holati qonunchilikda aks etishi muhim ekanligini e'tirof etishdi [8].

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz [We will build our great future together with our brave and noble people]. Speech at the meeting with voters of Andijan region on November 1, 2016. Tashkent, Uzbekistan, 2017, p. 22.
2. Reference No. 1645 of the Investigative Department of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan dated 21.03.2022 No. 18/2509. 28.03.2022.
3. Reference of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan dated 11.05.2022 07/13-4853-150- reference number No. 2922. 15.05.2022.
4. Mahmudov S.A. Ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatishning ayrim jihatlarlari [Some aspects of ending a criminal case without resolving an issue of guilt]. Lawyer herald, 2020, no. 6, pp. 110–115.
5. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish: nazariya va amaliyot [Termination of a criminal case: theory and practice]. Tashkent, 2015, p. 86.
6. Vasil'ev F.Yu. Institut otkaza v vozbuzhdenii ugolovnogo dela [Institute of refusal to initiate criminal proceedings]. Abstract of PhD thesis. St. Petersburg, 2016, pp. 15–16.
7. Peretokin S.N. Ohkrana prav i svobod cheloveka i grazhdanina pri prekrashhenii ugolovnogo dela [Protection of human and civil rights and freedoms upon termination of a criminal case]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2006. pp 13–24.
8. Tadqiqot ishi doirasida olib borilgan surishtiruvchi, tergovchi, amaliyotchi va huquqshunoslardan iborat respondentlar jamoasi o'rtasidagi so'rov natijalari [The results of a survey among a team of respondents, consisting of an inquiry officer, investigator, practitioner and lawyers, carried out within the framework of the research work].
9. Muhammadiyev A.A. Fuqarolik huquqi tamoyillarining nazariy va amaliy muammolari [Theoretical and practical problems of the principles of civil law]. Tashkent, 2010, p 193.
10. The Criminal Procedure Code of the Russian Federation (dated December 18, 2001);
11. Criminal Procedure Code of the Republic of Azerbaijan. Approved by the Law of the Republic of Azerbaijan No. 907-IQ dated July 14, 2000. Article 39.
12. Criminal Procedure Code of the Republic of Armenia No. ZR-248 of September 1, 1998. Article 35.
13. Criminal Procedure Code of Georgia General Session Section I Criminal Procedure Legislation and Principles of Tbilisi. October 9, 2009, no. 1772-IIc rm art.105.
14. Japanese criminal-prosensual code – Keydzi-sashe-Ho, 1948, July 10, no. 131 Article 339.
15. Ugolovno-protsessual'noye pravo OAE. Osnovnyye polozheniya stat'ey 20-21 [Criminal Procedure law of the UAE. Main provisions article 20-21].
16. Criminal Procedure Law – Saudi Arabia Criminal Procedure Law Royal Decree, 2001, October 16, no. (M/39). Article 22.
17. Criminal Procedure Act of South Korea – Hansa-son-biop, 1954, September 23, no. 341 Article 328.
18. The Criminal Procedure Code of Estonia. Adopted on 12.02.2003 RT I 2003, 27, 166 Entered into force on 01.07.2004. Article 199. Circumstances precluding criminal proceedings.
19. Ataniyazov J.K. Problems of legal regulation of circumstances excluding proceedings in the case. Jurisprudence. 2022, no. 5, pp. 165–173.
20. Ataniyazov J.K. Problems of exemption of persons from criminal liability due to active repentance in consent. Review of Law Sciences. 2022, no. 4, pp. 132–141.

21. Ataniyazov J.K. Some aspects of protecting the rights and interests of persons in case of refusal to initiate or terminate a criminal case. Jurisprudence. 2023, no. 1, pp. 126–135. DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./HKEW7923

22. The Criminal Procedure Code of the People's Republic of China, Ad. at the 2nd session of the National People's Congress of the Fifth Convocation, 1979, July 1. art.24.

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI FANINING DARG'ASI YOXUD YURIDIK FANLAR DOKTORI, PROFESSOR ZAYNIDDIN MUXITDINOVICH ISLOMOV XOTIRASINI YOD ETIB...

Insonni hayotligida e'zozlash, unga mehr ko'rsatish – ezgu ish. Ayniqsa, us-tozni ulug'lash, unga hurmat bajo keltirish muqaddas burch sanaladi.

Ta'kidlash joizki, joriy yilning 23-may kuni TDYUda yuridik fanlar doktori, professor Zayniddin Muxitdinovich Islomov tavalludining 85 yilligi munosabati bilan uning xotirasiga bag'ishlangan "Huquq nazariyasi va tarixining yuridik kadrlar tahliliy ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Ushbu anjumanda respublika yuridik jamoatchiligi vakillari, xorijlik olimlar, Z.M. Islomovning do'stlari, hamkasblari, shogirdlari va oila a'zolari ishtirok etdi.

Darhaqiqat, Zayniddin Muxitdinovich o'z umri davomida katta va mazmunli hayot yo'lini bosib o'tdi. Olim 1938-yil 30-aprelda Toshkent shahrida dunyoga kelgan. 1956–1961-yillarda Toshkent yuridik institutida tahsil olgan. Institutni tamomlagach, ilk mehnat faoliyatini Qoraqalpog'iston Respublikasi ilmiy-texnika kutubxonasi direktori vazifasidan boshlagan. 1962-yilda o'z mutaxassisligi bo'yicha avtonom respublika davlat arbitraji arbitri sifatida faoliyat olib borgan.

1963-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmasi kengashida Omma-viy-tashkiliy bo'linma instruktori vazifasida mehnat faoliyatini davom ettirgan. Zayniddin Muxitdinovich to'rt yil davomida ushbu vazifani ado etish barobarida kasaba uyush-

malar faoliyatining huquqiy asoslari, ushbu tashkilotning fuqarolar mehnat huquqlarini ta'minlashdagi o'rni, shuningdek, ayrim mavjud muammolarni chuqur o'rgangan va tegishli amaliy tajribaga ega bo'lgan. Mazkur tashkilotdagi faoliyati bo'lajak olimning ilmiy mavzu va yo'nalish tanlashiga asos bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bo'lajak olim faoliyati bog'liq bo'lgan kasaba uyushmalarini ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yanada chuqurroq o'rganishga qaror qilgan va shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Falsafa va huquq ilmiy tekshirish instituti huzuridagi aspiranturaga kirib, ilmiy izlanishlarini boshlagan.

1972-yilda "Kasaba uyushmalarining davlatni boshqarishdagi ishtiroki" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

So'ngra 1970-yildan boshlab Toshkent davlat universiteti Yuridik fakultetining Davlat va huquq nazariyasi kafedrasida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent, kafedra professori lavozimlarida ishlagan.

1991-yili Zayniddin Muxitdinovich "Политика-правовая реформа: взаимодействие права и норм общественных отношений в самоуправлении народа" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, fan doktori ilmiy darajasini olgan.

Ta'kidlash joizki, Z. Islomov nafaqat chuqur bilimli, keng mushohadali olim, balki yuridik ta'lim va yuridik fanning jonkuyar tashkilotchisi sifatida ham salmoqli faoliyat

olib borgan. U 1993-1994-yillarda institutning ilmiy ishlar bo'yicha, 1995-yilda esa o'quv ishlari bo'yicha prorektori lavozimida faoliyat olib borib, yetuk huquqshunos va ilmiy kadrlar tayyorlashga katta hissa qo'shgan.

1995-1997-yillarda olim kafedra mudiri sifatida o'z mehnat faoliyatini davom ettirgan. 1997-1999-yillarda Prezident farmoni bilan institut huzurida tashkil etilgan Huquqiy ma'rifat targ'iboti markazi direktori lavozimida ishlab, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish ishlarida faollik ko'rsatgan.

Zayniddin Muxitdinovich 1999-2009-yillarda kafedra mudiri, 2009-2013-yillarda kafedra professori sifatida faoliyat olib borib, huquqshunos va ilmiy kadrlar tayyorlash ishiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan, yosh o'qituvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatib, ularga bosh-qosh bo'lgan.

Z. Islomov ilmiy, o'quv ishlari bilan bir qatorda respublika ijtimoiy hayotida ham faol ishtirok etgan. U O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi fuqarolikka qabul qilish va avf masalalari bo'yicha komissiya a'zosi, respublika Oliy Sudi ilmiy-maslahat Kengashi a'zosi, Respublika FA Falsafa va huquq instituti hamda TDYU huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini olish bo'yicha ixtisoslashgan kengash a'zosi sifatida keng ilmiy va ijtimoiy faoliyat olib borgan.

Olimning ilmiy faoliyati juda mazmunli bo'lib, u yuzga yaqin asarlar – monografiya, ilmiy maqola, risola, darsliklar, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifidir. Z. Islomovning, ayniqsa, "Davlat va huquq: umumnazariy masalalar", "Davlat nazariyasi", "Jamiyat. Davlat. Huquq", "Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga", "Hokimiyat muammosi: uni tushunish, ahamiyati va ij-

timoiy vazifasi", "Yurisprudensiya o'tmishi va buguni" kabi asarlarida zamonaviy huquqshunoslikning dolzarb masalalari O'zbekiston voqeliklari asnosida chuqur tahlil etilganligi bilan ahamiyatli bo'lib, jumladan, ushbu asarlarda davlat va huquqning o'zaro uzviy bog'liqligi, davlat hokimiyatining huquq bilan cheklanishi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati, davlat hokimiyati va fuqarolarning huquq va majburiyatlar bilan o'zaro mas'uliyati, inson huquqlari kabi masalalar amaldagi qonunchilik va mamlakatimizda kechayotgan islohotlar silsilasida chuqur ilmiy tadqiq etilgan.

E'tiborlisi shundaki, Z. Islomov O'zbekiston mustaqilligi va demokratik rivojlanish borasidagi islohotlarni alohida ilmiy teranlik bilan his etib, Davlat va huquq nazariyasi fani nuqtayi nazaridan chuqur talqin etgan. Binobarin, olimga keng dunyoqarash, yuksak huquqiy tafakkur va davlat-huquqiy hodisalarga chuqur ilmiy yondashuv, zamonaning o'zgarish vektorini tezda anglash, yangiliklarga o'ta xayrixohlik bilan qarash kabi xislatlar xos bo'lib, bu uning ilmiy tafakkurida zamon bilan hamnafaslik tuyg'usini kuchaytirish, hattoki ma'lum ma'noda vaqtdan, zamondan oldinga o'tib, voqea-hodisalarga yondashish, ularning kelgusi tadrijini ko'ra bilishga imkon berardi.

Olimning yuridik fan va yuridik ta'lim hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki davlatimiz tomonidan munosib baholanib, 2004-yili "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan.

Zayniddin Muxitdinovich Islomov 2017-yil 15-avgustda vafot etgan. Uning yorqin xotirasi do'stlari, hamkasblari, shogirdlari va yaqinlari qalbida doimo yashaydi. U boshlagan ezgu ish va amallar shogirdlari va farzandlari tomonidan munosib davom ettirib kelinmoqda.

Mavlyuda Axmedshayeva,
TDYU professori, y.f.d.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 3-SON

VOLUME 3 / ISSUE 3 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.3.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y. f. d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, Y. Yarmolik,
F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 26.06.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 5,81 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 35.

TDYU tipografiyasida chop etildi.